Z.M. Adizova

DASTURLASH TEXNOLOGIYALARI

O‘QUV QO‘LLANMA

“KAMOLOT” nashriyoti
Buxoro 2023

UO‘K: 004 (075.8)
KBK: 32.973ya73
A 97

Z.M. Adizova Dasturlash texnologiyalari / [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Buxoro : “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 204 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Python dasturlash tillaridagi imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan. Python dasturlash tillari hozirgi kunda ko‘pgina ta’lim muassasalarida o‘qitilayotganligi sababli, aynan shu dasturlash tillari tanlab olindi. O‘quv qo‘llanmada Python dasturlash tilini yaratilishi, imkoniyatlari, asosiy operatorlari, qo‘shimcha funksiyalari va darslikda keltirilgan oddiy dasturlashdan murakkab masalalar, ya’ni funksiya va protseduralarni qo‘llab dasturlash, shuningdek, grafik imkoniyatlari aniq misollar asosida ochib berilgan.

Taqrizchilar:

BuxDU Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti f.-m.f.n **N.S.Sayidova**

BMTI Axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrasi p.f.d. (DSc), professori **F.R.Muradova**

ISBN: 978-9943-9148-9-6

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2023 yil “23” martdagi “112”- sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berildi.

MUNDARIJA

Kirish

Mamlakatimizdagi ta’lim tizimi, uni tashkil etish prinsiplari, mazmuni, ta’lim-tarbiya jarayonining shakl va usullarini yangi ta’lim texnologiyalari talablari daRejasida tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Hozirgi davrga kelib zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy vakili bo‘lgan kompyuterlar hayotimizning barcha sohalariga jadallik bilan kirib bormoqda. Shunday ekan, kompyuter texnologiyasini o‘rganishga alohida e’tibor berish talab qilinmoqda.

Bu o‘rinda “Informatika va axborot texnologiyalar” fanining o‘rni alohida hisoblanadi. Informatika va axborot texnologiyalarni samarali o‘qitilishini yo‘lga qo‘yilishida o‘quv jarayonida amaliy dasturlardan foydalanish fanining ahamiyati juda kattadir.

Dasturlash-kompyuterlar va boshqa mikroprosessorli elektron mashinalar uchun dasturlar tuzish, sinash va o‘zgartirish jarayonidan iborat. Odatda dasturlash yuqori saviyali dasturlash tillari orqali amalga oshiriladi.

Dasturlash tillarining semantikasi odam tiliga yaqinligi tufayli dastur tuzish jarayoni ancha oson kechadi.

Algoritm so‘zi algoritmi so‘zidan olingan bo‘lib, u IX-asrning matematigi bobokalonimiz Muhammad Al-Xorazmiy nomining lotincha shaklidir.Informatika sohasida algoritm tushunchasi asosiy tushuncha hisoblanadi. Algoritm-bir masalani bajarish uchun bajarilishi zarur bo‘lgan buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligi.Tuzilgan algoritmni uning yozilish qoidalarini tushunadigan va unda ko‘rsatilgan buyruqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan insonning o‘zi yoki texnik qurilma bajarishi mumkin.

Har qanday qo‘yilgan masalani kompyuterda yechish uchun oldin uning yechish usulini tanlab, keyin uning algoritmini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Dastur-bu berilgan algoritmga asoslangan biror bir algoritmik tilda yozilgan ko‘rsatmalar, ya’ni buyruqlar yoki operatorlar to‘plamidir. Dasturlash — esa bu dastur tuzish jarayonidir. Python dasturlash tillarini qiyoslasak, uch til universal til hisoblanadi, hamda ko‘plab imkoniyatlarga ega.

1-ma’ruza. Python tili va uning dasturlash muhiti

Reja:

1. Python dasturlash tili tarixi
2. Python dasturlash tili imkoniyatlari
3. Python dasturlash tilini o‘rnatish

Python dasturlash tilini yaratilishi 1990-yil boshlaridan boshlangan. O‘sha paytlarda uncha taniqli bo‘lmagan Gollandiyaning CWI institute xodimi Gvido van Rossum ABC tilini yaratilish proektida ishtirok etgan edi. ABCtili Basic tili o‘rniga talabalarga asosiy dasturlash konsepsiyalarini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan til edi. Bir kun Gvido bu ishlardan charchadi va 2 hafta davomida o‘zining Macintoshida boshqa oddiy tilning interpretatorini yozdi, bunda u albatta ABC tilining ba’zi bir g‘oyalarini o‘zlashtirdi. Shuningdek, Python 1980-1990-yillarda keng foydalanilgan Algol-68, C, C++, Modul3 ABC, SmallTalk tillarining ko‘plab xususiyatlarini o‘ziga olgandi. Gvido van Rossum bu tilni internet orqali tarqata boshladi. Bu paytda o‘zining “Dasturlash tillarining qiyosiy taqrizi” veb sahifasi bilan internetda to 1996- yilgacha Stiv Mayevskiy ismli kishi taniqli edi. U ham Macintoshni yoqtirardi va bu narsa uni Gvido bilan yaqinlashtirdi. O‘sha paytlarda Gvido BBC ning “Monti Paytonning havo sirki” komediyasining muxlisi edi va o‘zi yaratgan tilni MontiPayton nomiga Python deb atadi (ilon nomiga emas). Til tezda ommalashdi. Bu dasturlash tiliga qiziqqan va tushunadigan foydalanuvchilar soni ko‘paydi. Boshida bu juda oddiy til edi. Shunchaki kichik interpretator bir nechta funksiyalarga ega edi. 1991-yil birinchi OYD(Obyektga yo‘naltirilgan Dasturlash) vositalari paydo bo‘ldi. Bir qancha vaqt o‘tib Gvido Gollandiyadan Amerikaga ko‘chib o‘tdi. Uni NRI koorparatsiyasiga ishlashga taklif etishdi. U o‘sha yerda ishladi va koorparatsiya shug‘ullanayotgan proektlarni Python tilida yozdi va bo‘sh ish vaqtlarida tilni interpretatorini rivojlantirib bordi. Bu 1990-yil Python 1.5.2 versiyasi paydo bo‘lguncha davom etdi. Gvidoning asosiy vaqti koorparatsiyani proektlarini yaratishgaketardi bu esa unga yoqmasdi. Chunki uning Python dasturlash tilini rivojlantirishga vaqti qolmayotgandi. Shunda u o‘ziga tilni rivojlantirishga imkoniyat yaratib bera oladigan homiy izladi va uni o‘sha paytlarda endi tashkil etilgan BeOpen firmasi qo‘llab quvvatladi.

U CNRIdan ketdi, lekin shartnomaga 8 binoan u Python 1.6 versiyasini chiqarib berishga majbur edi. BeOpen da esa u Python 2.0 versiyani chiqardi. 2.0 versiyasi bu oldinga qo‘yilgan katta qadamlardan edi. Bu versiyada eng asosiysi til va interpretatorni rivojlanish jarayoni ochiq ravishda bo‘ldi. Shunday qilib 1.0 versiyasi 1994-yil chiqarilgan bo‘lsa, 2.0 versiyasi 2000- yil, 3.0 versiyasi esa 2008-yil ishlab chiqarildi. Hozirgi vaqtda uchinchi versiyasi keng qo‘llaniladi.

Python dasturlash tili imkoniyatlari Python – bu o‘rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo‘lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari qatoriga kiradi. Python yuqori daRejadagi ma’lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo‘naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi.

Pythonning o‘ziga xosligi oddiy, o‘rganishga oson, sodda sintaksisga ega, dasturlashni boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta’minot.

Dasturni yozishda vomidaquyidaRejadagidetallarni,misoluchun xotirani boshqarishni hisobga olish shart emas. Ko‘plab platformalarda hech qanday o‘zgartirishlarsiz ishlay oladi.Interpretatsiya qilinadigan til.

Kengayishga moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xohlasak shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsa) bo‘ladi.
Juda ham ko‘p xilma-xil kutubxonalarga ega.
7.xml/html fayllar bilan ishlash
http so‘rovlari bilan ishlash
GUI(grafik interfeys)
10.Veb saytlarni yaratish
11.FTP bilan ishlash
12. Rasmli audio video fayllar bilan ishlash13.Robot texnikada
14.Matematik va ilmiy hisoblashlarni dasturlash

Pythonni katta proyektlarda ishlatish mumkin. Chunki, uni chegarasi yo‘q, imkoniyati yuqori. Shuningdek, u sodda va universalligi bilan dasturlash tillari orasida eng yaxshisidir.

IDLEni ishga tushirish tartibi

Har doim yangi dastur tuzishda IDLE alohida ishga tushiriladi, ishga tushirishtartibi esa doim bir xil ko‘rinishda bo‘ladi.



File bo‘limidan New Fileni tanlab (klaviaturadan Ctrl+N), yangi ikkinchi oqoynani hosil qilamiz.



Ikkinchi oyna kod yozish uchun, birinchi oyna esa dastur natijasini ko‘rish uchun ishlatiladi. Unutmang, ikkinchi oynada kodlarni yozib bo‘lgach uni saqlab olishimiz kerak, aks holda dastur ishlamaydi. Saqlash uchun ishchi stolidan “Dasturlar” nomli papka hosil qilib, hamma dasturlarni shu papkaga saqlaymiz. Hozir namuna sifatida biror dastur yozib, uni saqlab ishga tushirishni o‘rganamiz.

Nazorat savollari:

1. Python dasturlash tili qachon yaratila boshlangan?
2. IDLEni ishga tushirish tartibi qanday?
3. Pythonning o‘ziga xosligi nimalarda?
4. Python dasturlash tili imkoniyatlarini aytib bering?

2-ma’ruza. Python dasturlash tilida o‘zgaruvchilar.

Reja:

1. Python dasturlash tilida o‘zgaruvchilar.
2. Python dasturlash tilida o‘zgaruvchi tiplari.
3. Mantiqiy va haqiqiy qatorlar.

Literal konstantalar bilan ishlash tez orada sizni zeriktirishi mumkin. Biror ma’lumotni saqlash va uning ustida turli amallarni bajarish uchun bizga o‘zgaruvchilar yordam beradi. O‘zgaruvchining qiymati, o‘z nomi bilan aytib turibdiki, o‘zgarishi mumkin. Siz unda xohlagan qiymatni saqlashingiz mumkin.

O‘zgaruvchilar kompyuter xotirasidagi joy bo‘lib, u yerda siz biror ma’lumotni saqlaysiz. O‘zgaruvchining konstantadan farqi, o‘zgaruvchiga dastur ishlashi davomida (run time) murojaat qilib, uning qiymatini o‘zgartira olamiz. Konstantaga esa oldindan ma’lum bir qiymat beriladi va bu qiymatni o‘zgartirib bo‘lmaydi.

O‘zgaruvchilarni nomlashda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

O‘zgaruvchining birinchi belgisi alifbo xarfi (ASCII simvollari katta va kichik registrda va Unicode) yoki “_" (underscore) simvoli bo‘lishi mumkin.

O‘zgaruvchilarning qolgan qismi xarflardan (ASCII simvollari katta va kichik registrda va Unicode), “_" (underscore) simvoli va raqamlardan(0-9) tashkil topishi mumkin.

O‘zgaruvchilar nomlashda katta va kichik registrlar farqlanadi. Masalan, myname va myName – bular boshqa-boshqa o‘zgaruvchi hisoblanadi.

O‘zgaruvchilarni to‘g‘ri nomlashga misollar: i, __my_name, name_23, a1b2_c3 va ixtiyoriy_simvol

O‘zgaruvchilarni noto‘g‘ri nomlashga misollar: 2things, ’ ’, my-name, >a1b2_c3 va “o‘zgaruvchi qo‘shtirnoqda"

O‘zgaruvchi va konstantalarni qo‘llanilishiga misol:

```
i = 5
print(i)
i = i + 1
print(i)
s = '''Bu ko'p qatorlik satr.
Bu uning ikkinchi qatori.'''
print(s)
```

Natija: 5 6
Bu ko‘p qatorlik satr.
Bu uning ikkinchi qatori.
Mantiqiy va haqiqiy qatorlar.
Haqiqiy qator – bu siz dastur yozayotganingizda ko‘rib turgan qatoringiz.
Mantiqiy qator – bu python biror amal bajarish uchun bir butun deb hisoblab ko‘radigan qator.
Mantiqiy qatorga misol:
print(’Hello World!’)
shu bilan birga u bir qatorda joylashgani uchun haqiqiy qatorga ham misol bo‘ladi.
Python o‘z holicha, har bir haqiqiy qatorni bir mantiqiy qator deb qaraydi.
i = 5
print(i)
yoki:
i = 5;
print(i);
Agar siz bir haqiqiy qatorda bir necha mantiqiy qator yozishni istasangiz u holda ’;’ bilan har bir mantiqiy qator tugash nuqtasini belgilashingiz lozim.
Misol uchun:
i = 5;
print(i);
yoki:
i = 5; print(i)

Bir mantiqiy qatorni bir haqiqiy qatorda yozishingiz maqsadga muvofiq. Bu bilan siz hech qanday nuqta vergulsiz dastur yozishni uddalashingiz mumkin.

Bittadan ko‘p haqiqiy qatorni bitta mantiqiy qator uchun ishlatish mumkin. Bu uzun satrlarni yozishda ishlatiladi. Quyida bir necha haqiqiy qatorni jamlagan bitta mantiqiy qator keltirilgan.
s = ’Bu satr. \
Bu uning davomi.’
print(s)

Natija:
Bu satr. Bu uning davomi.
Bo‘sh joy (Отступы)

Pythonda har bir qator boshidagi bo‘sh joy muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy qator boshidagi bo‘sh joy(пробелы и табуляции) shu mantiqiy qatorning bajarilish daRejasini belgilaydi va amallarni guruhlashda katta ahamiyatga ega.

Bu shuni anglatadiki birgalikdagi amallar bir xil bo‘sh joyga ega bo‘lishlari kerak. Har bunday amallar to‘plami blok deb nomlanadi.

Keyingi darslarimizda bo‘sh joylar qanchalar muhimligini misollar orqali ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Yodingizda saqlang! Noto‘g‘ri qo‘yilgan bo‘sh joylar xatolik yuz berishiga olib kelishi mumkin!

Misol uchun quyidagi dasturni probel.py fayliga yozing va python yordamida ishga tushiring:

```
i = 5
print(’Qiymat ’, i) # Xatolik! Bo‘sh joy qator boshida
print(’Takroran, qiymat’, i)
```

Ishga tushirganingizda quyidagicha xatolik yuz beradi.

```
File “probel.py", line 2
print(’Qiymat’, i) # Xatolik! Bo‘sh joy qator boshida
IndentationError: unexpected indent
```

E’tibor bering 2-qator boshida bitta probel mavjud. Python chop etgan xatolik shuni anglatadiki dastur sintaksisi noto‘g‘ri va qoidalar bo‘yicha yozilmagan.

Bu shuni anglatadiki siz ixtiyoriy joyda amallar blokini boshlay olmaysiz (faqat asosiy dasturda ishlatiladigan blokdan tashqari).

Probel va tabulyatsiya belgilarini bo‘sh joyda aralashtirib yubormang. Bo‘sh joylar uchun bir tabulyatsiya yoki to‘rtta probel ishlatishga harakat qiling.

Nazorat savollari:

1. Python dasturlash tilida o‘zgaruvchilarni nomlashda qanday qoidalar mavjud?
2. Pythonda mantiqiy va haqiqiy qatorlar nima?
3. Python dasturlash tilida bo‘sh joy tashlash qanday amalga oshiriladi?

3-ma’ruza. Pythonda ma’lumot turlari.

Reja:

1. Python dasturlash tili ma’lumotlar turlari.
2. Python dasturlash tilida sonlar.

Python dasturlash tilida quyidagi ma’lumot turlari mavjud:

1	Matn turi	str
2	Son turlari	Int, float, complex
3	Tartib turlari	List, tuple, range
4	Xarita turi	Dict
5	Turlarni o‘rnatish	Set, frozenset
6	Boolean(mantiqiy) turi	Bool
7	Ikkilik turlari	Byte, bytearray,memoryview

Pythonda dasturlash tilida type() funksiyasi yordamida istalgan obyekt ma’lumotlarini olishingiz mumkin.

Masalan: print(type(attribute))

```
n = 99
print(type(n))
```

Natija:

```
<class ’int’>
```

Agar ma’lumotlar turini ko‘rsatmoqchi bo‘lsangiz, quyidagi konstruktor funktsiyalaridan foydalanishingiz mumkin:

x = str("Adizova Zuhro")	str
x = int(99)	int
x = float(99.09)	float
x = complex(99j)	complex
x = set(("Z", "ZA", "AZM-1996"))	set
x = frozenset(("Z", "ZA", "AZM-1996"))	frozenset
x = bool(99)	bool

x = bytes(99)	bytes
x = bytearray(99)	bytearray
x = memoryview(bytes(99))	memoryview
x = list(("Z", "ZA", "AZM-1996"))	list
x = tuple(("Z", "ZA", "AZM-1996"))	tuple
x = range(99)	range
x = dict(name="Adizova Zuhro", age=24)	dict

Pythonda sonlar

Python dasturlash tilida 3 xil sonlar turi mavjud va raqamli turiga kiruvchi o‘zgaruvchilar ularga qiymay belgilaganingizda yaratiladi.

int

float

complex

```
x = 1    # int
y = 2.8  # float
z = 1j   # complex
```

Python dasturlash tilida har qanday o‘zgaruvchini turini aniqlash uchun type() funksiyasidan foydalangan holda keladigan o‘zgaruvchi yoki belgilangan o‘zgaruvchini turini aniqlash imkoniyati mavjud.



Natija:

```
=== RESTART: C:/Users/Admin/AppData/Local/Programs/Python/Python310/11111.py ===
<class 'int'>
<class 'float'>
<class 'complex'>
```

Int- bu turgan tegishli sonlar o‘nlik sonlar bo‘lmagan butun qiymatga ega qoldiq qismiga ega bo‘lmagan va manfiy yoki musbat sonlar kiradi.

```
x = 99
y = 549219161219562
z = -6544598464654654
print(type(x))
print(type(y))
print(type(z))
```

Natija:

<class’int’>
<class’int’>
<class’int’>

float— yuqoridagi qoidaga (int) muaffiq ammo tarkibiga o‘nlik sonlarni oladigan manfiy yoki musbat sonlar.

```
x = 99.656546
y = 5492191.61219562
z = -654459846465.4654
print(type(x))
print(type(y))
print(type(z))
```

Natija:

<class’float’>
<class’float’>
<class’float’>

complex — Kompleks sonlar xayoliy qismi sifatida "j" yoziladi.

```
x = 4+9j
y = 8j
z = -9j
print(type(x))
print(type(y))
```

```
print(type(z))
```
Natija:
```
<class’complex’>
<class’complex’>
<class’complex’>
```
Python dasturlash tilida boshqa dasturlash tillari kabi sonlar turini bir turdan boshqa bir turga o‘tkazish imkoniyati mavjud. Buning uchun int(), float()va complex() funksiyalardan foydalanishingiz mumkin.
```
# butun sondan float ga konvert qilish
x = float(1)
# float dan int ga o‘tkazish
y = int(2.8)
# int dan complex ga o‘tkazish
z = complex(1)
print(x)
print(y)
print(z)
```
Natija:
```
1.0
2
(1+0j)
```
Python random() tasodifiy raqamni hosil qilish funktsiyasiga ega emas , ammo Python random tasodifiy raqamlarni chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ichki modulga ega :
```
Import random
print(random.randrange(1, 10))
```

Nazorat savollari:

1. Python dasturlash tilida ma’lumotlar turlarini sanab bering?
2. Pythonda sonli ma’lumotlar?
3. Python dasturlash tilida bo‘sh joy tashlash qanday amalga oshiriladi?

4-ma’ruza.Pythonda operatorlar bilan ishlash.

Reja:

1. Python dasturlash tilida matematik funksiyalar.
2. Pythonda arifmetik operatorlar va ularning tadbiqi
3. Pythonda mantiqiy operatorlar va ularning tadbiqi
4. Pythonda matematik funksiyalar

Pythonning matematik funksiyalar kutubxonasi trigonometrik hisoblashlar, sonli shakl almashtirishlar va sonli almashtirishlarni bajaradi. Trigonometrik funksiyalar argumentlari radianlarda beriladi, hamda graduslarni radianga va aksincha almashtiruvchi funksiyalar ham mavjud. Matematik operatorlar bilan bir qatorda Pythonda ko‘p sonli matematik funksiyalar ham nazarda tutilgan.

Bular quyidagilar:

acos() - radianda ifodalangan arksinus.

import math x=float(input(’x=’))y=math.acos(x) print(’acos=’,y)

acosh() - radianda ifodalangan giperbolik arkkosinus.

import math x=int(input(’x=’))y=math.acosh(x)print(’acosh=’,y)

asin() - radianda ifodalangan arksinus.

import math x=int(input(’x=’))y=math.asin(x) print(’asin=’,y)

asinh() - giperbolik arksinus.

import math x=int(input(’x=’))y=math.asinh(x) print(’asinh=’,y)

atan() - radianda ifodalangan arktangis.

import math x=int(input(’x=’))y=math.atan(x) print(’atan=’,y)

atanh() - giperbolik arktanges.

import math x=float(input(’x=’))y=math.atanh(x) print(’atanh=’,y)

abs() - sonning absolyut qiymati.

acos() – radianda ifodalangan arkkosinus.

atan2() - arktangens y/x ni, y va x kvadratlar ishorasi bilan aniqlanuvchinatijaviy kvadrat bilan qaytariladi.

ceil() - sonni o‘zidan katta butun songa yaxlitlash.

cos() - radianda ifodalangan kosinus.

cosh() - giperbolik kosinus.

exp() - berilgan sonning eksponentasini hisoblash.

floor() - sonni o‘zidan kichik butun songa yaxlitlash.

fmod() -ikki son x ni y ga bo‘lgandagi qoldiqni hisoblaydi.

hypot() - to‘g‘ri burchakli uchburchakda ikki katet bo‘yicha gipotenuzanihisoblash.

log10() - o‘nlik logarifm.
log() - natural logarifm.
log1p() – log(1+x), bunda x ning qiymati nolga yaqin bo‘lganda ham natija aniq chiqadi. log() ning aniqligi etarli bo‘lmaganligi sababli, bu holda shunchaki log(1) ga qaytiladi.
pi() - π sonining qiymatini aniqlaydi.
pow() – x sonini y daRejaga ko‘tarish.
sin() - radianda ifodalangan sinus.
sqrt() – x sonining kvadrat ildizi.
sinh() - radianda ifodalangan geperbolik sinus.
tan() - radianda ifodalangan tangens
tanh() - radianda ifodalangan giperbolik tangens.
% - birinchi argumentni ikkinchi argumentga bo‘lgandagi qoldiq.
factorial(num) – sonning faktorialini hisoblaydi.
degrees(rad) – radiandan gradusga o‘tkazadi.
radians(grad) – gradusdan radianga o‘tkazadi;
Fabs(x) – x ning absolyut raqami
Frexp(x) — mantisa va tartibni (m, i) juftligi kabi qaytaradi, m- o‘zgaruvchan nuqtali son, i esa- x=m*2**i ga teng butun son bo‘ladi. Agarda 0-(0,0) qaytarsaboshqa paytda 0.5<=abs(m)<1.0 bo‘ladi.
Ldexp(m,i)=m*(2**i).- m ni, 2 ni i daragacha tartibda qaytaradi.
Modf(x)- (y,q) juftlikda x ning butun va q kasr qismini qaytaradi.
Trunc(x)-x haqiqiy sonning butun qismini qaytaradi.
tau – tau konstantasi
e – e konstantasi
gamma – x sonining gamma qiymati
int([object],[sanoq sistemasi asosi])- butun sonni berilgan sanoq sistemasidano‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazadi.
bin(x)- butun sonni ikkilik sanoq sistemasiga o‘tkazadi.
hex(x)- butun sonni o‘n oltilik sanoq sistemasiga o‘tkazadi.
oct(x)- butun sonni sakkizlik sanoq sistemasiga o‘tkazadi.
Python tilida turli tipdagi o‘zgaruvchilardan foydalanish mumkin, shu sababli, har bir tipdagi o‘zgaruvchilar qanday tavsiflanishini bilish zarur.
Python tilida bitta o‘zgaruvchini dastur bajarilishi davomida satr yoki son sifatida ishlatish mumkin. Shu bilan birga Python tilida o‘zgaruvchilar bilan ishlanganda oshkor ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan asosiy ma’lumotlar tiplari to‘plami mavjud.

Butun (integer) sonlar – Sonning kasr bo‘lmagan son bo‘lib, ularda sonning asosi (10 lik), o‘n oltilik (asosi 16-prefiksga ega) yoki sakkizlik (asosi 8- prefiksli) sanoq sistemalar ko‘rsatiladi.

Siljuvchi vergulli (float) sonlar – sonning kompyuterda amalga oshiriladigan eksponentsiol yozuvi. Xuddi shuningdek, “ikkilangan aniqlikga” ega bo‘lgan son ham mavjud.

Satr (string) – simvollar ketma – ketligidan iborat bo‘lib, unda har bir simvol bir bayt o‘lchamdan, toki maksimal uzunlik 216 gacha bo‘lgan joyni egallaydi. Yakka qavslarga olingan satrlar literallar sifatida qaraladi, ayni paytda ikkilangan qavslar ichidagi satrlar esa (maxsus belgilar, o‘zgaruvchilarning qiymatlari va shu kabilar) sifatida talqin qilinadi.

Bul (boolean) tipi — Mantiqiy ifoda bo‘lib, uning qiymati faqat rost (True) yokiyolg‘on (False) dan iborat.

Kompleks (complex) tipi – Sonning birinchi argument sifatida haqiqiy qism, ikkinchi argument sifatida mavhum qism uzatiladi.

Massiv (array) – bir nechta qiymatlarning tartiblashtirilgan xaritasi bo‘lib, undagi kalitlar qiymatlarga mos keladi. Kalitlar – bu indeks nomerlari (ular so‘zsiz tushuniladi) yoki aniq ko‘rsatilgan nishonlar.

Ob’ekt – bu berilganlarning xossalarini saqlovchi va berilganlarni qayta ishlash metodlaridan iborat bo‘lgan sinf.

Resurs – tashqi resursga havola bo‘lib, ular maxsus funksiyalar tomonidan yaratiladi va saqlanadi.

NULL – qiymatga ega bo‘lmagan o‘zgaruvchi. Bu o‘zgaruvchi, shakllantirilmagan bo‘ladi (unga hech bir qiymat berilmagan bo‘ladi), agar unga NULL o‘zgarmasi ta’minlangan bo‘lsa yoki unset() funksiyasi yordamidabekor qilinmagan bo‘lsa.

Pythonda arifmetik, mantiqiy operatorlar va ularning tadbiqi

Arifmetik amallar va qiymat berish operatori. Berilganlarni qayta ishlash uchun PYTHON tilida amallarning juda keng majmuasi aniqlangan. Amal — bu qandaydir harakat bo‘lib, u bitta (unar) yoki ikkita (binar) operandlar ustida bajariladi, hisob natijasi uning qaytariluvchi qiymati hisoblanadi. Tayanch arifmetik amallarga qo‘shish (+), ayirish (-), ko‘paytirish (*), bo‘lish (/), daRejaga ko‘tarish (**) va bo‘lish qoldig‘ini olish (%) amallarini keltirish mumkin. Amallarqaytaradigan qiymatlarni o‘zlashtirish uchun qiymat berish amali (=) va uning turli modifikatsiyalari ishlatiladi: qo‘shish,

qiymat berish bilan (+); ayirish, qiymatberish bilan (-); ko‘paytirish qiymat berish bilan (*); bo‘lish, qiymat berish bilan (/); bo‘lish qoldig‘ini olish, qiymat berish bilan (%) va boshqalar. Ularning umumiy ko‘rinishlariga to‘xtalamiz.

Razryadli mantiqiy amallar. Dastur tuzish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, odatda qo‘yilgan masalani yechishda biror holat ro‘y berganligini yoki yo‘qligini ifodalash uchun 0 va 1 qiymat qabul qiluvchi bayroqlardan foydalaniladi. Shu maqsadda bir yoki undan ortiq baytli o‘zgaruvchilardan foydalanish mumkin. Masalan, bool (mantiqiy) tupdagi o‘zgaruvchini shu maqsadda ishlatsa bo‘ladi. Boshqa tomondan, bayroq sifatida baytning razryadlaridan foydalanish ham mumkin. Chunki razryadlar faqat ikkita qiymatni – 0 va 1 sonlarini qabul qiladi. Bir baytda 8 razryad bo‘lgani uchun unda 8 ta bayroqni kodlash imkoniyati mavjud. Quyidagi jadvalda Python tilida bayt razryadlari ustida mantiqiy amallarmajmuasi keltirilgan.

Bayt razryadlari ustida mantiqiy amallar

Amallar	Mazmuni
And yoki &	Mantiqiy VA (ko‘paytirish)
Xor yoki |	Mantiqiy yoki (qo‘shish))
Or yoki ^	Istisno qiluvchi YOKI

Razryadli mantiqiy amallarning bajarish natijalarini jadval ko‘rinishida ko‘rsatishmumkin.

A	B	A&B	A|B	A^B
0	0	0	0	0
0	1	0	1	1
1	0	0	1	1
1	1	1	1	0

Nazorat savollari:

1. Python matematik operatorlar bilan ishlash?
2. Pythonda mantiqiy operatorlar bilan ishlash?
3. Python dasturlash tilida razryadli mantiqiy amallar qanday bajariladi?
4. Bayt razryadlari ustida mantiqiy amallar qaysilar sanab bering?

5-ma’ruza. Pythonda tarmoqlanuvchi operatorlar.

Reja:

1. Python dasturlash tilida tarmoqlanuvchi operatorlar.
2. Python dasturlash tilida mantiqiy amallar.
3. Python dasturlash tilida PASS funksiyasi.

Python If … Else (shart amali)

Python dasturlash tili odatiy matematik mantiqiy amallarni qo‘llab quvvatlaydi. demak bo‘lar quyidagilar.

•Teng: a == b
•Teng emas: a! = B
•Kichik: a <b
•Kichik yoki teng: a <= b
•Katta: a> b
•Katta yoki teng: a> = b

Yuqorida keltirilgan shartlarni bir necha xil ko‘rinishda bir shart ichida keltirib o‘tsangiz bo‘ladi. Quyidagi ko‘rinishda If shart amaliga misol keltirib o‘taman.

```
a = 13
b = 15
if b > a:
  print("b son a dan katta")
>>>b son a dan katta
```

Yuqorida keltirilgan misolni tasnifi quyidagicha a va b o‘zgaruvchilar if amalini bajarish uchun kerakli bir qismi hisoblanadi. Shart bajarish jarayonida a bilan b ni solishtiradi agarda b soni a dan katta bo‘lsa shart bajarilib ekranga b son a dan katta so‘zi chiqadi.

Python dasturlash tilida if shart yoki boshqa amallarda uning tarkibiga kiruvchi qisim kodini yozish uchun berilayotgan operator oldidan bo‘sh qism qoldiriladi. Eslatma: Boshqa dasturlash tillarida(C++, C#) if, for va h.k amallar tarkibiga yozish uchun {} bilan tarkibiga olar edik!

Elif — "Aks holda agar" degan ma’nosi berib, undan oldingi keladigan if shart yolg‘on qiymat qabul qilsa ushbu shartga o‘tadi.
Unutmang!!! elif ishlatishdan oldin doimo elif yoki if keladi.

```
a = 9
b = 9
if b > a:
```

```
  print("b soni a dan katta")
elif a == b:
  print("a va b teng.")
```
>>>a va b teng.

else — "Aks Holda" degan ma’noni berib hech qanday shartni rost yolg‘onligini tekshirmaydi. Yuqoridagi shartlar barchasi yolg‘on qabul qilsa else ishlaydi. unutmang!! elif kabi yakka o‘zi kelmaydi.

```
a = 9
b = 11
if b == a:
  print("b soni  a tang")
else:
   print("b soni a ga teng emas!")
```
>>>b soni a ga teng emas!

IF qisqa shaklda

Agar siz if shart amalida qisqa shart tanasidan foydalanmoqchi bo‘lsangiz faqatgina bir qatorda yozishinigiz kerak bo‘ladi.

```
if a > b: print("a b dan katta")
```
>>>a b dan katta

IF...ELSE qisqa shakli

Qisqa shakli ya’ni if va else bir qatorda shakllantirish uchun shart amalimiz rost qiymat qabul qiladigan operatorlarni birinchi yozamiz so‘ngra else bajariladigan operatorlarni kiritamiz.

```
a = 18
b = 19
if a > b: print("A")
else: print("B")
```
>>>B

AND mantiqiy amali

and mantiqiy amalida har ikkala shart rost qiymat qabul qilgandagina rost bo‘ladi.

```
a = 19
b = 23
c = 29
if a < b and c > a:
   print("Ikkala shart rost qiymat qabul qildi!")
```
>>>Ikkala shart rost qiymat qabul qildi!

OR mantiqiy amali

Or mantiqiy amalida har ikkala shartdan hech bo‘lmaganda birisi rost qiymat qabul qilgandagina rost bo‘ladi.

```
a = 13
b = 15
c = 19
if a < b and c < a:
print("Ikkala shartdan birisi rost qiymat qabul qildi!")
>>>Ikkala shartdan birisi rost qiymat qabul qildi!
```

PASS

If shart tanasi bo‘lishi mumkin emas, agar siz shart operatori tarkibida hech qanday amal bajarmoqchi bo‘lmasangiz u holda siz pass qo‘llashingiz mumkin.

```
a = 13
b = 15
if b > a:
   pass
```

Masala: 1-999 gacha oraliqdagi sonlarni so‘zlarda ifodalovchi dastur tuzing.(masalan: 123-“bir yuz yigirma uch”).

```
y=int(input(’Son kiriting:’))
if y>=1000: print("1 dan 999 gacha bo‘lgan sonlarni kiriting!")
else: t1=int(y/100)
my_switch={ 1:"bir yuz",
2:"ikki yuz",
3:"uch yuz",
4:"to‘rt yuz",
5:"besh yuz",
6:"olti yuz",
7:"yetti yuz", 8:"sakkiz yuz", 9:"to‘qqiz yuz"
}
t2=y%100;
m=int(t2/10); switch={
1:"o‘n",
2:"yigirma",
3:"o‘ttiz",
4:"qirq",
5:"ellik",
6:"oltmish",
7:"yetmish",
```

```
8:"sakson",
9:"to‘qson"
}
t3=int(y/100); n=y%10;
myswitch={ 1:"bir",
2:"ikki",
3:"uch",
4:"to‘rt",
5:"besh",
6:"olti",
7:"yetti",
8:"sakkiz",
9:"to‘qqiz"
}
print(my_switch.get(t1,’’),switch.get(m,’’), myswitch.get(n,’’));
```

```
Python 3.10.1 (tags/v3.10.1:2cd268a, Dec  6 2021, 19:10:37) [MSC v.1929 64 bit (
AMD64)] on win32
Type "help", "copyright", "credits" or "license()" for more information.

===== RESTART: C:/Users/user/AppData/Local/Programs/Python/Python310/66.py =====
Son kiriting:913
to‘qqiz yuz o‘n uch
```

Nazorat savollari:

1. Pythoda tarmoqlanuvchi operatorlar qaysilar?
2. Pythonda or mantiqiy operatorlar bilan ishlash?
3. Pythonda and mantiqiy operatorlar bilan ishlash?
4. Python dasturlash tilida 2 sondan kattasini topuvchi dastur tuzing?

6-ma’ruza.Pythonda takrorlanish operatorlari.

Reja:

1. Python dasturlash tilida takrorlanish operatorlari.
2. Python dasturlash tilida range va xrange funksiyalari bilan ishlash.
3. Python dasturlash tilida break va continue.

Dasturlash davomida kodimizning biror qismini bir necha marta takrorlash talab etilishi mumkin. Misol uchun, ro‘yxat ichidagi har bir elementni alohida qatordan konsolga chiqarish, yoki bo‘lmasa har bir elementni kvdartaga oshirish va hokazo.

Mana shunday vaziyatlarda bizga **for** operatori yordam beradi. Dasturlashda bu **tsikl** (**loop**) deb ataladi.

Keling quyidagi misolni ko‘ramiz. Bizda mehmonlar ro‘yxati bor, biz har bir mehmonning ismini yangi qatordan chiqarmoqchimiz. Buning uchun quyidagi kodni yozamiz:

```
talabalar = [’Anvar’,’Ilhom’,’Malik’, ’Majid’,’Mamur’]
for talaba in talabalar:
print(talaba)
```

Natija:

```
Anvar
Ilhom
Malik
Majid
Mamur
```

Kodni tahlil qilamiz:

1-qatorda biz talabalar degan ro‘yxat yaratdik va uni mehmonlarning ismi bilan to‘ldirdik.

2-qatorda for tsiklini bohladik. Bu qator Pythonga mehmonlar degan ro‘yxatdan har bir elementini olib uni yangi, talaba degan o‘zgaruvchiga yuklashni buyuryapti (*o‘zgaruvchiga istalgan nom berishingiz mumkin. Biz tushunarli bo‘lishi uchun* talaba *deb atadik*)

3-qatorda biz talaba degan o‘zgaruvchining qiymatini konsolga chiqardik. Bu tsikl to talabalar ro‘yxatida elementlar tugagunga qadar takrorlanadi.

"**For**" so‘zi ingliz tilidan "**uchun**" deb tarjima qilinadi.

Yuqoridagi kodni oddiy tilga tarjima qilsak *"talabalar ro‘yxatidagi har bir talaba* ***uchun*** *uning ismini konsolga chiqar"* degan ma’noni beradi.

for qanday ishlaydi
talabalar = [’Anvar’,’Ilhom’,’Malik’, ’Majid’,’Mamur’]
for talaba in talabalar:
  print(f"Hurmatli {talaba}, sizni 2-parada Dasturlash texnalogiyasidan darsingiz bor")
  print("Ma’ruzachi: Adizova Z.M")

Natija:



Yuqoridagi kodda 2-qator bu tsikl boshi deyiladi. Aynan shu qator kodimiz necha marta takrorlanishini aniqlaydi. Bizning holatimizda tsikl talabalar ro‘yxati ichidagi elementlar tugagunga qadar takrorlanadi. Tsikl boshlanishi ikki nuqta (:) bilan tugaydi. Undan keyingi 3 va 4-qatorlar bu tsiklning badani deyiladi.

Tsikl badani surilish (indentation) bilan ajratiladi, ya’ni tsiklning takrorlanuvchi qismi asosiy koddan bir muncha o‘ngroqqa surilgan bo‘ladi. Agar biz mana shu surilishni tark qilsak kodimiz xato beradi:

```
talabalar = [’Anvar’,’Ilhom’,’Malik’, ’Majid’,’Mamur’]
for talaba in talabalar:
print(f"Hurmatli {talaba}, sizni 2-parada Dasturlash texnalogiyasidan darsingiz bor")
print("Ma’ruzachi: Adizova Z.M")
```

Natija:

IndentationError: expected an indented block

Ko‘rib turganingizdek for dan keyingi qatorni o‘ngga surmaganimiz uchun **indentation error** (surishda xatolik) degan xabarni oldik. Shunigdek, ko‘pchilik yo‘l qo‘yadigan yana bir xato, qo‘shimcha qatorlarni surish esdan chiqishi:

```
talabalar = [’Anvar’,’Ilhom’,’Malik’, ’Majid’,’Mamur’]
for talaba in talabalar:
  print(f"Hurmatli {talaba}, sizni 2-parada Dasturlash texnalogiyasidan darsingiz bor")
print("Ma’ruzachi: Adizova Z.M")
```

Natija:



Yuqoridagi kodimizda 4-qatorni o‘ngga surmaganimiz uchun, Python bu qatorni tsikl tashqarisida deb qabul qildi va faqatgina 1 marta, tsikl tugaganidan so‘ng bajardi.

Xuddi shu kabi agar takrorlanishi kerak bo‘lmagan kodni tsikldan so‘ng o‘ngga surib qo‘ysak Python bu qatorni tsiklning tarkibida deb hisoblab, qayta-qayta bajaradi:

```
talabalar = [’Anvar’,’Ilhom’,’Malik’, ’Majid’,’Mamur’]
for talaba in talabalar:
  print(talaba)
  print(talabalar) # bu qator tsikl tashqarisida bo‘lishi kerak
```



Yuoqirdagi misolda 5-qator o‘ngga surilib qolgani uchun Python bu qatorni ham bir necha bor takrorlab, konsolga chiqardi. To‘g‘ri kod quyidagicha bo‘ladi:

```
talabalar = [’Anvar’,’Ilhom’,’Malik’, ’Majid’,’Mamur’]
for talaba in talabalar:
   print(talaba)
print(talabalar)
```

for yordamida sonli ro‘yxatlar bilan ishlash

Misol:

```
sonlar = list(range(1,11))
for son in sonlar:
   print(f"{son} ning kvadrati {son**2} ga teng")
```

Natija:



for yordamida yangi ro‘yxat ham shakllantirish mumkin:

```
sonlar = list(range(11)) # 0 dan 10 gacha sonlar ro‘yxatini yaratamiz
sonlar_kvadrati =[] # bo‘sh ro‘yxat yaratamiz
for son in sonlar: # sonlar dagi har bir son uchun
   sonlar_kvadrati.append(son**2) # uning kv.ni hisoblab, sonlar_kvadrati ga yuklaymiz
print(sonlar)
print(sonlar_kvadrati)
```

Natija:

```
>>>[0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]
[0, 1, 4, 9, 16, 25, 36, 49, 64, 81, 100]
```

for va input()

for operatori va input() funktsiyasini jamlab, ro‘yxatni foydalanuvchidan olingan qiymatlar bilan to‘ldirish mumkin:

```
talabalar = [] # bo‘sh ro‘yxat
print("5 ta eng yaxshi talabangiz kimlar?")
for n in range(5): # n bu yerda 0 dan 4 gacha qiymatlar oladi
```

```
  talabalar.append(input(f"{n+1}-talabangizning ismini kiriting: "))
print(talabalar)
```

Natija:



Kodni tahlil qilamiz:

1-qatorda bo‘sh dostlar ro‘yxatini yaratdik

2-qatorda ekranga "5 ta eng yaxshi talabangiz kimlar?" degan xabarni chiqardik

3-qatorda tsiklni boshladik. range(5) funktsiyasi 0 dan 5 gacha sonlar ketma-ketligini yaratadi (0,1,2,3,4) tsikl esa n shularning har biriga teng bo‘lib chiqquncha davom etadi.

4-qatorda tsikl badani kelgan. Bu yerda biz foydalanuvchidan n+1 do‘stingizni kiriting deb so‘radik. Nima uchun n+1 (n emas)? Sababi n 0 dan 4 gacha qiymatlarni oladi, foydalanuvchiga tushunarli bo‘lishi uchun esa biz "0-talabangizni ismini kiriting:" deb emas, balki n+1 ya’ni 1-ismni kiriting deb murojat qilyapmiz.

5-qatorda shakllangan ro‘yxatni konsolga chiqardik.

for tsikli har qanday dasturlash tilining eng muhim qismlaridan hisoblanadi va biz bu operatoraga hali takror-takror qaytamiz.

While operator

Operator *while* shartli sikl operatori deyiladi, siklga kirishda oldin shartli ifoda hisoblanadi, agar uning qiymati noldan farqli bo‘lsa sikl tanasi bajariladi. Shundan so‘ng shartli ifodani hisoblash va sikl tanasi operatorlarini bajarish, shartli ifoda qiymati nolga teng bo‘lguncha davom etadi. Takrorlanishlar soni oldindan aniq bo‘lmaganda va qandaydir shartga bog‘liq bo‘lganda *while* operatoridan foydalanamiz.

While takrorlash operatorining sintaksisi quyidagicha:

while <shart>:

<operatorlar>

Bu yerda shart rost bo‘lganda operatorlar qismi bajariladi.
Quyidagi masalada 1 dan n gacha sonlarning yig‘indisini while da hisoblaymiz:

```
n=int(input(’n=’));s=0;
i=1;
while i<=n:s=s+i; i=i+1;
print(’while=’,s);
```

Nazorat savollari:

1. Pythoda takrorlanuvchi operatorlar qaysilar?
2. Pythonda for takrorlanish operatorlar bilan ishlash?
3. Pythonda while takrorlanuvchi operatorlar bilan ishlash?

7-ma’ruza. Pythonda satrlar.

Reja:

1. Python dasturlash tilida satrlar bilan ishlash.
2. Python dasturlash tilida satr metodlari.
3. Python dasturlash tilida satr funksiyalari.

Satrlar – bu belgilar ketma-ketligi. Ko‘p hollarda satrlar so‘zlar jamlanmasidan tashkil topadi. Pythonda satrlar bilan ishlash juda qulay. Bir qancha satr literallari mavjud. Ularni ko‘rib chiqamiz: Apostrof va qo‘shtirnoqdagi satrlar.

Apostrof va qo‘shtirnoqdagi satrlar bir narsa. Uni ikki xil variantda keltirilishiga sabab literallarga apostrof va qo‘shtirnoq belgilarini maxsus xizmatchi belgilardan foydalanmasdan kiritish mumkinligi deb hisoblanadi.

Ekran bilan ishlash ketma-ketliklari-xizmatchi belgilar

Ekran bilan ishlash ketma-ketliklari- klaviatura yodamida kiritish murakkab bo‘lgan belgilarni yozishga imkon beradi.

Xizmatchi belgilar	Vazifasi
\n	Keyingi qatorga o‘tish
\a	Qo‘ng‘iroq
\f	Keyingi betga o‘tish
\r	Koretkani qaytarish
\t	Gorizontal tabulatsiya
\v	Vertical tabulatsiya
\N{id}	Unicode ma’lumotlar bazasining ID identifikatori
\uhhhh	Unicode ning 16 lik ko‘rinishidagi 16 bitli belgisi
\Uhhhh. . .	Unicode ning 32 lik ko‘rinishidagi 32 bitli belgisi
\xhh	Belgining 16 lik kodi

\ooo	Belgining 8 lik kodi
\0	Null belgisi (satr oxiri belgisi emas)

Ko‘p qatorli satrlar

Pythonda satrlarni apostrof(’) va qo‘shtirnoqdan foydalanib hosil qilish mumkin. Apostrof (bir tirnoq(’)) yoki qo‘sh tirnoqni(") 3marta takrorlash orqali esa ko‘p qatorlik satrlarni xosil qilish mumkin. Milsol uchun:

Satr konstantalarini birlashtirish uchun ularni yonma-yon joylashtirishning o‘zi kifoya. Python avtomat ularni birlashtiradi. Misol uchun: "Ismingiz" "kim?" avtomat "Ismingiz kim?" ga aylanadi. Eslatma: Bir tirnoq va qo‘sh tirnoqdagi satrlar bir-biridan hech ham farq qilmaydi.

Satrlarning funksiya va metodlari

Shunday qilib satrlar bilan ishlash haqida gapirdik, endi satrlarning funksiyalari va metodlari haqida gapiramiz. Quyida satrlarning barcha funksiya va metodlari keltirilgan.

Asosiy operatsiyalar

Konkatenatsiyalash (qo‘shish)

Satrni takrorlash (dublikat qilish)

Satr uzunligi (len() funksiyasi)

Indeks bo‘yicha chiqarish

Misoldan ko‘rinib turibidiki Python manfiy indeks bo‘yicha chiqarishga ruxsat etadi, lekin hisoblash qator oxiridan boshlanadi.

Kesmani ajratib olish. Kesmani ajratib olish operatori:[X:Y]. X-kesmaning boshi, Y esa –oxiri. Y raqamli belgi kesmaga kirmaydi. Jimlik holatida birinchi indeks 0 ga teng, ikkinchi indeks esa qator uzunligiga teng bo‘ladi.

Bundan tashqari kesmani ajratib olishda qadamni belgilash mumkin. Satrlarning qo‘shimcha funksiya va metodlari. Metodlarni chaqirganga Pythondagi satrlar o‘zgarmaydigan ketma-ketliklar daRejasiga kirishini inobatga olishimiz kerak. Bu degani hamma funksiyalar va metodlar faqat yangi satrni tuzishi mumkin.

Shuning uchun hamma metodlar yangi satrni qaytaradilar, va u keyin boshqa nomga ega bo‘ladi.

S = ’str’; S = “str”; S = ’’’str’’’; S = “”“str”“”- Satrlarni literallari
S = “s\np\ta\nbbb”- ekran bilan ishlash ketma-ketliklari S = r”C:\temp\new”- Formatlashtirilmagan satrlar S = b”byte”- Baytlar qatori S1+S2- Konkatenatsiya(qo‘shish)
S1*3- Satrni takrorlash
S[i]- Indeks bo‘yicha murojaat
S[i:j:step]- Step qadamli i elementdan boshlab j elementgacha bo‘lgan kesmani ajratib olish.

Python dasturlash tilida satrlar bitta yoki ikki qo‘sh tirnoq ichida yoziladi. ’Salom’ bilan ’Salom’ ikkisi ham bir xil hisoblanadi. Satrni qora ekranga chiqarish uchun print() funksiyasidan foydalanishingiz mumkin.

Satr turiga ega o‘zgaruvchi yaratish.

Bir qatorli satrni o‘zgaruvchiga biriktirish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri python dasturlash tilida uchramaydigan kalit so‘zlarni ishlatmagan holda yozib ketsangiz bo‘ladi.

```
a=’salom dunyo‘
print(a)
```

Ko‘p qatorli satrni o‘zgaruvchiga biriktirish.
Ko‘p qatorli satrni biriktirish uchun 3 ta tirnoq tarkibida yozish imkoni mavjud. quyidagi misolga e’tibor bering.

```
b=’’’Python dasturlash tili
reytinngi baland dasturlash tillaridan
biri’’’
print(b)
```

Natija:

```
Python dasturlash tili
reytinngi baland dasturlash tillaridan
biri
```

Boshqa ko‘plab dasturlash tillari singari Python dasturlash tilida satrlar ifodalashda baytlardan iborat hisoblanadi. Biroq Python dasturlash tilida belgilar bo‘yicha ma’lumot turlari mavjud emas, bitta belgini uzunligini shunchaki 1 deb qabul qilasiz. [] kvadrat qavs ichida ma’lumotlar ifodalanadi.

```
z=’maktab’
print(z[1])
>>a
```

Satrni ma’lum bir qismini qirqib olish va uni biron bir o‘zgaruvchiga

yuklash uchun yoki bo‘lmasam ekranga chop qilish uchun kvadrat qavs ichiga boshlanishi va tugashini yozamiz va ikkitali nuqta orqali bir biridan ajratiladi.

[boslanish:tugatish]

```
 z=’maktab’
print(z[1:3])
>>ak
```

Teskari qirqish uchun - dan foydalanamiz. Bunda oxirgi simbol indeksi birinchi yoziladi.

```
z=’maktab’
print(z[-4:-1])
>>tab
```

Qator uzunligini olish uchun len() funktsiyadan foydalaning

```
z=’maktab’
print(len(z))
>>6
```

Satrni barcha elementlarini kichik qillish uchun lower() funksiyasidan foydalaniladi

```
z=’MaktaB’
print(z.lower())
>>maktab
```

Satrni barcha elementlarini katta qillish uchun **upper()** funksiyasidan foydalaniladi.

```
z=’MaktaB’
print(z.lower())
>>MAKTAB
```

Eslatma: Barcha satr funksiyalari yangi qiymatlarni qaytaradi. Ular asl qiymatini o‘zgartirmaydilar.

Nazorat savollari:

1. Pythoda starlar bilan ishlash metodlari qaysilar?
2. Pythonda ko‘p qatorli satrlar bilan ishlash?
3. Pythonda berilgan so‘zni kichkina harflar bilan ekranga chiqarish dasturini tuzing?
4. Pythonda satrlarni qirqishni misollar bilan tushuntiring.

8-ma’ruza.Pythonda ro‘yxatlar va to‘plamlar.

Reja:

1. Python dasturlash tilida ro‘yxatlar.
2. Python dasturlash tilida to‘plamlar.
3. Python dasturlash tilida ro‘yhat va to‘plam metodlari.

Python dasturlash tilida to‘rtta ma’lumotlar to‘plami mavjud. Set-tartibsiz va indekslanmagan to‘plam. Python-da to‘plamlar figurniy qavslar bilan yoziladi.

```
set99 = {"apricot", "banana", "apple"}
print(set99)
>>> {’apricot’, ’apple’, ’banana’}
>>> {’apple’, ’apricot’, ’banana’}
```

Eslatma: To‘plamlar tartibsiz, shuning uchun elementlarning qaysi tartibda paydo bo‘lishiga aniq bilmaysiz.

Set to‘plamda element mavjudligini tekshirish uchun quyidagicha yo‘l qo‘llasak bo‘ladi.

```
set99 = {"apricot", "banana", "apple"}
print("banana" in set99)
>>>True
```

To‘plam yaratilgandan so‘ng, siz uning elementlarini o‘zgartira olmaysiz, ammo yangi narsalarni qo‘shishingiz mumkin.

To‘plamga bitta element qo‘shish uchun add() usuldan foydalaning . Agar siz to‘plamga bir necha element qo‘shmoqchi bo‘lsangiz update() funksiyasidan foydalanishingiz mumkin.

```
set99 = {"apricot", "banana", "apple"}
set99.add("orange")
print(set99)
>>>>{’apricot’, ’orange’, ’apple’, ’banana’}
set99 = {"apricot", "banana", "apple"}
set99.update(["orange", "mango", "grapes"])
print(set99)
>>>{’orange’, ’apricot’, ’grapes’, ’apple’, ’mango‘, ’banana’}
```

To‘plamda nechta element borligini aniqlash uchun len() funksiyasidan foydalanamiz.

```
set99 = {"apricot", "banana", "apple"}
print(len(set99))
>>>3
```

To‘plamdagi elementni olib tashlash uchun remove()yoki discard()usulidan foydalaning.

```
set99 = {"apricot", "banana", "apple"}
set99.remove("banana")
print(set99)
>>> {’apple’, ’apricot’}
```

Eslatma: Agar olib tashlanadigan element mavjud bo‘lmasa, remove()xato yuzaga keladi. discard() funksiyasida xatolik yuzaga kelmaydi.

Quyidagi discard() usul yordamida "apple" ni olib tashlang :

```
set99 = {"apricot", "banana", "apple"}
set99.discard("apple")
print(set99)
>>> {’apricot’, ’banana’}
```

pop() Elementni olib tashlash uchun foydalanishingiz mumkin , ammo bu usul *oxirgi* elementni olib tashlaydi . Unutmangki, to‘plamlar tartibsiz, shuning uchun qaysi element o‘chirilishini bilmay qolasiz.pop()Usulning qaytish qiymati olib tashlangan element hisoblanadi.

```
set99 = {"apricot", "banana", "apple"}
x = set99.pop()
print(x) # uchirilan holda
print(set99) #oldingi holat
>>> apple
{’apricot’, ’banana’}
>>> banana
{’apricot’, ’apple’}
```

Python dasturlash tilida ikki yoki undan ortiq to‘plamlarni(set) ni qo‘shish uchun bir nechta usullari mavjud. union() va update() kabi funksiyalardan foydalanishingiz mumkin.

Eslatma: Har ikki union()va update() har qanday ikki nusxadagi ma’lumotlar istisno qiladi.

```
s1 = {"a", "b" , "c"}
s2 = {1, 2, 3}
s1.update(s2)
print(s1)
>>> {’a’, 1, ’c’, 2, 3, ’b’}
>>> {’c’, 1, 2, ’a’, 3, ’b’}
```

set tegishli to‘plamni yaratish uchun set() konstruktoridan foydalaniladi.

```
set99 = set(("apricot", "banana", "apple"))
print(set99)
```

{’banana’, ’apple’, ’apricot’}
>>> {’apple’, ’banana’, ’apricot’}
>>> {’apricot’, ’banana’, ’apple’}

Pythonda to‘plamlarda ishlatishingiz mumkin bo‘lgan o‘rnatilgan funksiyalar to‘plami mavjud.

add()	set ga element qo‘shish
clear()	Barcha elementni o‘chirib tashlash
copy()	to‘plandan nusxa olish
difference()	Ikki to‘plam orasidagi farqni qaytaradi.
difference_update()	Barcha kiritilgan elementlarni olib tashlaydi.
discard()	Belgilangan elementni olib tashlaydi
intersection()	To‘plam qaytaradi.
intersection_update()	Joriy to‘plamda ko‘rsatilmagan boshqa elementlarni olib tashlaydi.
isdisjoint()	Ikki to‘plamni kesishgan yoki yo‘qligini qaytaradi.
issubset()	Boshqa to‘plamda ushbu to‘plam bor yoki yo‘qligini qaytaradi.
issuperset()	Ushbu to‘plamda boshqa to‘plam mavjudmi yoki yo‘qliginiqaytaradi.
pop()	Bitta element o‘chirish
remove()	Belgilangan elementni o‘chirish
symmetric_difference()	Ikki to‘plamning nosimmetrik farqlari bilan to‘plamni qaytaradi
symmetric_difference_update()	ushbu to‘plamdan va boshqasidan nosimmetrik farqlarni kiritadi
union()	To‘plamlarning birlashishini o‘z ichiga olgan to‘plamni qaytaring
update()	Ushbu to‘plam va boshqalarni birlashishi bilan to‘plamni yangilang

Nazorat savollari:

1. Pythoda starlar bilan ishlash metodlari qaysilar?
2. Pythonda ko‘p qatorli satrlar bilan ishlash?
3. Pythonda berilgan so‘zni kichkina harflar bilan ekranga chiqarish dasturini tuzing?
4. Pythonda satrlarni qirqishni misollar bilan tushuntiring.

9-ma’ruza. Pythonda massivlar.

Reja:

1. Python dasturlash tilida bir o‘lchovli massivlar.
2. Python dasturlash tilida ko‘p o‘lchovli massivlar.
3. Massiv metod va funksiyalari.

Pythondagi massiv — bu bir xil turdagi ob’ektlarni saqlash uchun ishlatiladigan buyurtma qilingan ma’lumotlar tuzilishi. Funktsional imkoniyatlari jihatidan ular ro‘yxatlarga o‘xshashdir, ammo ularning kirish ma’lumotlari turiga, shuningdek o‘lchamlariga nisbatan ba’zi cheklovlar mavjud. Ushbu xususiyatga qaramay, massivlar Python dasturlash tilidagi ma’lumotlar to‘plamlari bilan ishlash uchun juda funktsional vosita hisoblanadi.

Massivlarni yaratish va to‘ldirish. Pythonda yangi qator qo‘shishdan (yaratishdan) oldin, bunday ob’ekt bilan ishlash uchun mas’ul bo‘lgan kutubxonani import qilishingiz kerak. Buning uchun dastur fayliga from array import * qator qo‘shilishi kerak. Massivlar bitta doimiy ma’lumotlar turi bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga qaratilgan bo‘lib, natijada ularning barcha elementlari bir xil o‘lchamga ega. array funktsiyasidan foydalanib biz yangi ma’lumotlar to‘plamini yaratishimiz mumkin.

Massivlarni yaratishning umumiy sintaksisi quyidagicha:

array(massiv_turi, qiymatlar_ro‘yxati)

Quyidagi misol Python massivni qanday to‘ldirish kerakligini ko‘rsatib beradi: from array import *

massiv = array(’i’, [2, 5, 4, 0, 8])

Massiv funksiyasi ikkita argumentni oladi, birinchisi - bu yaratilgan massivning turi, ikkinchisi - uning qiymatlarining dastlabki ro‘yxati. Bu yerda massiv elementlarining ’i’ (2 baytli butun) tur. Buning o‘rniga 1 baytli belgi ’c’ (char turi)ni yoki 4 baytli ’f’ float turini kabi boshqa turlardan foydalanishimiz mumkin.

Quyidagi jadvalda massiv turlari keltirilgan:

Turning massivda yozilishi	C turi	Python turi	Minimal hajmi baytda
’b’	signed char	int	1
’B’	unsigned char	int	1
’u’	Py_UNICODE	unicode character	2
’h’	signed short	int	2
’H’	unsigned short	int	2
’i’	signed int	int	2
’I’	unsigned int	int	2
’l’	signed long	int	4
’L’	unsigned long	int	4
’q’	signed long long	int	8
’Q’	unsigned long long	int	8
’f’	Float	float	4
’d’	Double	float	8

Shuni esda tutish kerakki, massiv faqat bitta turdagi ma’lumotlarni saqlashi mumkin, aks holda dasturni ishga tushirganimizda xatolik beradi va muvaffaqiyatsiz bo‘ladi.

Massiv elementiga murojaat qilish. Kvadrat qavs yordamida massiv elementiga murojaat qilishimiz mumkin. Masalan : massiv[2].

Massivlarni ekranga chiqarish. Dasturdagi har qanday ma’lumotlar bilan ishlashda vaqti-vaqti bilan ularni tekshirishga ehtiyoj bor. Bu ularni ekranda aks ettirish orqali osonlikcha amalga oshiriladi. Buni amalga oshirish uchun print deb nomlangan funktsiya yordam beradi.

Bu ilgari yaratilgan va to‘ldirilgan qator elementlaridan birini argument sifatida qabul qiladi. Quyidagi misolda for sikl operatori yordamida ma’lumotlar massivining har bir elementi vaqtinchalik identifikator i orqali chiqariladi:

```
from array import *

massiv = array('i',
[2, 5, 4, 0, 8]) for
i in massiv:

  print(i)
```



Yuqoridagi kodning natijasida barcha element qiymatlari bo‘yicha takrorlanadiva ekranga chiqariladi.

Massivga element qo‘shish. Python qatoriga yangi element qo‘shish uchun insert metodidan foydalanish kerak. Buning uchun uni avval yaratilgan ob’ekt orqali chaqirish va ikkita qiymatni argument sifatida kiritish kerak. Birinchisi (4) massivdagi yangi elementning indeksiga, ya’ni uni joylashtirish kerak bo‘lgan joyga, ikkinchisi (3) qiymatning o‘zi uchun javobgardir.

```
from array import *

massiv = array('i', [2, 5,
4, 0, 8])

massiv.inser
t(4, 3) for
i in massiv:

  print(i)
```



Shuni esda tutish kerakki, biz qatorga faqat ilgari yaratilgan ob’ekt tegishli bo‘lgan turdagi ma’lumotlarni qo‘shishimiz mumkin. Bunday operatsiyani bajarishda mavjud bo‘lgan elementlar soni dasturning ehtiyojlariga qarab ko‘payadi.

Elementni o‘chirish. Pythonda pop() metodi yordamida keraksiz elementlarni massivdan olib tashlash mumkin, uning argumenti

yacheka indeksi (3). Yangi element qo‘shilgandek bo‘lgani kabi, usulni misolda ko‘rsatilgandek, avval yaratilganob’ekt orqali chaqirish kerak.

```
from array import *
massiv = array('i',
[2, 5, 4, 0, 8])
massiv.pop(3)

for i in
  massiv:
  print(i)
```



Ushbu operatsiyani bajargandan so‘ng, mavjud bo‘lgan xotira katakchalari soni elementlarning joriy soniga to‘g‘ri keladigan qilib massiv tarkibini o‘zgartiradi.

Massiv uzunligini olish. Dastur bajarilishida massivning uzunligi o‘zgarishi mumkinligi sababli, ba’zida uning tarkibidagi elementlarning hozirgi sonini bilish foydalidir. len() metodi Pythondagi massivning uzunligini (hajmini) butun son sifatida olish uchun ishlatiladi. Pythonda massiv elementlari sonini ekranga chiqarish uchun print()metodidan foydalanamiz:

```
from array import *
massiv = array('i',
[2, 5, 4, 0, 8])
print("Massiv
              element
lari
soni=",len(massiv))
```



Yuqoridagi dastur kodidan ko‘rinib turibdiki, print() metodi argumenti sifatida len natijasini oladi, bu esa konsolga raqamli qiymatni chiqarishga imkon beradi.

Pythonda massivlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan funksiyalar va metodlar. Pythonda massivlar ishlashda qo‘llaniladigan bir nechta

```
from array import *

massiv = array('i',
[2, 5, 4, 0,8])
print(massiv.itemsize
)
```



metodlar mavjud bo‘lib, ularning eng asosiylari quyida keltirilgan:
array.typecode - Massivning elementlari turini aniqlash uchun ishlatiladi.Agar massivlar bir nechta bo‘lsa array.array(typecode) dan foydalaniladi.

```
from array import *

massiv = array('i',
[2, 5, 4, 0, 8])
print(massiv.typecode)
```



array.itemsize- massivdagi bitta elementning baytdagi hajmini hisoblashuchun ishlatiladi.

array.count(x) - masssivdagi *x* elementlar sonini qiymat sifatida qaytaradi ;

```
from array import *

massiv = array('i',
[2,2, 5, 4,4,4, 0,8])
print(massiv.count(4));
```



array.fromlist(ro‘yxat) – masssivga ro‘yxatdagi elementlarni qo‘shish uchunishlatiladi.

```
from array import *
massiv =
array('i',[1,2,3,4,
5]) list=[6,7,8]
massiv.fromlist(lis
t) print(massiv);
```



array.index(x) – massivdagi *x* elementining joylashgan indeksini qiymat
sifatida qaytaradi. Agar bunday element massivda mavjud bo‘lmasa, u holda
ValueError istisno holati ro‘y beradi;

```
from array import *
massiv = array('i',
[2, 5, 4, 0, 8])
print(massiv.index(8)
)
```



append()–metodimassivningoxirigayangielementqo‘shishuchun foydalaniladi.

```
from array import *
massiv = array('i',
[1,2,3,4,5])
massiv.append(9)
print(massiv)
```



array.remove(x) — massivdan *x* elementini o‘chirish. Ushbu metod ro‘yxatdagi birinchi uchragan *x* elementini o‘chiradi. Agar bunday element ro‘yxatda mavjud bo‘lmasa *ValueError* istisno holati ro‘y beradi.

```
from array import *

massiv = array('i',
[1,2,3,4,5])
massiv.remove(3)
print(massiv)
```



array.reverse() - massiv elementlarini teskari tartibda joylashtirish uchun qo‘llaniladi . Bundan tashqari, Python massiv bilan ishlashda qo‘llaniladigan bir nechta standart funksiyalarni ham o‘z ichiga qamrab olgan:

```
from array import *

massiv = array('i',
[1,2,3,4,5])
massiv.reverse()
print(massiv)
```



array.tolist() -massivni ro‘yxatga aylantirish uchun qo‘llaniladi.

```
from array import *

massiv = array('i',
[1,2,3,4,5])
list=massiv.tolist(
)

print(list)
```



array.tofile(f) - massivni ochiq faylga yozish uchun ishlatiladi.
array.fromfile(F,N) — fayldan N elementni o‘qiydi va ularni massiv oxiriga qo‘shib qo‘yadi. Ikkilik o‘qish uchun fayl ochilishi kerak. Agar N dan kam element mavjud bo‘lsa, *ValueError* istisnoli tashlanadi, ammo mavjud bo‘lgan elementlar qatorga qo‘shiladi.

```
import array
f=open("array.bin","wb"
)
massiv=array.array("i",
[1,2,3,4,5])
massiv.tofile(f)

f.close()
```



array.buffer_info() - tuple(kortej) xotiraning joylashuvi, uzunligini aniqlaydi.Past daRejadagi operatsiyalar uchun foydalidir.

```
import array
massiv=array.array('i',[1,
2,3,4,5])
print(massiv.buffer_info()
)
```



array.byteswap() - massivning har bir elementida baytlarning tartibini o‘zgartirish. Chunki boshqa bayt tartibida mashinada yozilgan fayldan ma’lumotlarni o‘qishda foydalidir;

```
from array import
array
my_array=array('i',[1
,2,3,4,5])
my_array.byteswap()
print(my_array)
```



array.extend(iter)-massivgaob’ektdanelementlarniqo‘shishuchun foydalanadi.

```
from array import array
my_array=array('i')
my_array.extend([1,2,3,4,5
]) print(my_array)
my_array.extend(range(6,10
)) print(my_array)
my_array.extend(array('i',
[44,55,66]))
print(my_array)
```



array.frombytes (b) - bir qator baytlardan massiv hosil qiladi. Baytlar soni massivdagi bitta element kattaligining ko‘paytmasi bo‘lishi kerak.

```
from array
import array
my_array =
array('b')

my_array.frombytes(b'1234
56789') print(my_array)
```



Pythonda ikki va ko‘p o‘lchovli massivlar

Ikki o‘lchovli massiv. Ba’zi hollarda oddiy bir o‘lchovli massiv ma’lum bir ma’lumot to‘plamini to‘g‘ri ko ’rsatish uchun etarli emas. Python dasturlash tilida ikki o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli massivlar mavjud emas, ammo ushbu platformaning asosiy imkoniyatlari ikki o‘lchovli ro‘yxatni tuzishni osonlashtiradi. Ushbu dizayn elementlari quyidagi misolda ko‘rsatilgandek to‘ldirilib, ustunlar va qatorlarga joylashtirilgan.

```
from array
import * d1 =
[]

for j in
  range(5):
  d2 = []

  for i in
    range(5):
    d2.append
    (i)
```



Bu yerda biz ikki o‘lchovli ma’lumotlar to‘plamini amalga oshirishning asosiy g‘oyasi bitta katta d1 ro‘yxati ichida bir nechta d2 ro‘yxatlarini yaratish ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ikki o‘lchamli 5 × 5 matritsani nol bilan avtomatik to‘ldirish uchun ishlatiladi. Qo‘shish va diapazon usullari ushbu vazifani yengishga yordam beradi, ularning birinchisi ro‘yxatga yangi element qo‘shadi (0), ikkinchisi esa uning qiymatini (5) o‘rnatishga imkon beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, for uchun har bir yangi tashqi (j) yoki ichki (i) ro‘yxatlarning joriy elementini ifodalovchi o‘z vaqtinchalik o‘zgaruvchisidan foydalanadi.

Ko‘p o‘lchovli ro‘yxatning kerakli katakchasiga uning koordinatalarini to‘rtburchaklar ichida ko‘rsatib, satrlar va ustunlarga e’tibor qaratishingiz mumkin: d1 [1] [2].

Ko‘p o‘lchovli massiv. Murakkab ro‘yxat sifatida ko‘rsatilgan ikki o‘lchovli qatorda bo‘lgani kabi, ko‘p o‘lchovli qator ham ro ’yxat ichida ro‘yxat tarzida amalga oshiriladi. Quyidagi misolda uch o‘lchamli(5x5x5) massiv yaratishni ko‘rib chiqamiz:

```
from array import *d1 = []
for k in range(5):d2 = []
for j in range(5):d3 = []
for i in range(5):d3.append(i)
d2.append(d3)d1.append(d2)
for i in d1:print(i)
```



Ikki o‘lchovli massivga o‘xshab, to‘rtburchaklar ichidagi ko‘rsatkichlar yordamida yuqorida qurilgan ob’ekt katakchasiga murojaat qilishimiz mumkin.

Masalan, d1 [4] [2] [3].

Massivlar odatda Python dasturlash tilidagi bir xil turdagi ma’lumotlar to‘plamlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun ishlatiladi. Platformaning standart kutubxonasi sizga tegishli funktsiyalar

yordamida uning tarkibini boshqarish qobiliyatini ta’minlaydigan bunday tuzilma bilan samarali ishlashga imkon beradi. Bundan tashqari, Python sathlar soniga cheklovlarsiz ro‘yxatlarning ko‘p o‘lchovli namoyishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Nazorat savollari:

1. Massiv deb nimaga aytiladi?
2. Massiv nechta turga bo‘linadi?
3. Bir o‘lchovli massivning umumiy ko‘rinishi?
4. Ikki o‘lchovli massivning umumiy ko‘rinishi?
5. Massivning faollashtirish usullari?

10-ma’ruza.Pythonda funksiyalar.

Reja:

1. Qism dasturlar.
2. Funksiya tanasini faollashtirish.
3. Global va lokal o‘zgaruvchilar.
4. Funksiyaga argument berishni soddalashtirish.

Funksiya – bu ko‘p marta ishlatiladigan dastur bo‘lagi. Funksiyalar ma’lum buyruqlar blokini ko‘rsatilgan nom bilan saqlash va shu blokni dasturning istalgan joyida, istalgan miqdorda bajarish imkonini beradi. Funksiyalar def zahira so‘zi orqali aniqlanadi. Bu so‘zdan so‘ng funksiya nomi, undan so‘ng qavs va shu qavs ichida bir necha o‘zgaruvchilarni ko‘rsatish mumkin bo‘ladi va oxirida ikki nuqta (:) yoziladi. Shulardan so‘ng funksiyani tashkil qiluvchi buyruqlar bloki yoziladi. Quyidagi misolda buning oson ekanligini ko‘rish mumkin.

Misol:

```
def funksiya1():
print(’Salom, Dunyo!’) # funksiyaga tegishli blok
funksiya1() # funksiyani chaqirish
funksiya1() # ya’na bir marta funksiyani chaqirish
```

Natija:

```
>>>Salom, Dunyo!
Salom, Dunyo!
```

Bu qanday ishlaydi:

Biz funksiya1 funksiyasini yuqorida aytib o‘tilgan qoida bo‘yicha aniqladik. Bu funksiya xech qanday paramert qabul qilmaydi shuning uchun qavs ichida xech qanday parametr yozilmadi. Funksiya parametri – bu qandaydir kiruvchi qiymatlar bo‘lib, tegishli natija olish uchun biz uni funksiyaga berishimiz mumkin.

E’tibor bering, bitta funksiyani ko‘p marta chaqirishimiz mumkin, demak, aynan bir xil dastur kodini qayta-qayta yozishga hojat yo‘q.

Funksiya parametrlari

Funksiyalar parametrlar, ya’ni funksiyaga berilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar qabul qila oladi va ular ustuda biror amal bajarishi mumkin. Bu parametrlar o‘zgaruvchilarga o‘xshaydi. Faqat ulardan farqi bu o‘zgaruvchilarning qiymati funksiyani chaqirish vaqtida o‘rnatiladi. Funksiya ish boshlagan vaqtda bularga qiymat biriktirilgan bo‘ladi.

Parametrlar funksiya aniqlanayotgan vaqtda qavs ishida vergul bilan ajratilgasn holda ko‘rsatiladi. Ularga qiymatni funksiyani chaqirganimizda biriktiramiz. Ushbu atamalarga e’tibor bering: funksiya e’lon qilinayotgan vaqtda ko‘rsatilgan nomlar parametrlar, funksiyani chaqirayotganimizda unga berilgan qiymatlar esa argumentlar deyiladi.

Misol:

```
def maximum(a, b):
if a > b:
print(a, ’katta’)
elif a == b:
print(a, ’teng‘, b)
else:
print(b, ’katta’)
maximum(9, 11) # qiymatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri berish
x = 99
y = 77
maximum(x, y) # o‘zgaruvchilarni argument sifatida uzatish.
```

Natija:

```
>>>11 katta
99 katta
```

Bu qanday ishlaydi:

Bu yerda biz a va b parametrlardan foydalanadigan maximum funksiyasini e’lon qildik. Bu funksiyada oddiygina if..else operatoridan foydalangan holda sonlarning kattasini aniqlaymiz va uni ekranga chop etamiz.

Maximum funksiyasini birinchi marta chaqirganimizda sonlarni to‘g‘ridan-to‘gri argument sifatida beramiz. Ikkinchi marta chaqirganimizda esa o‘zgaruvchilarni argument sifatida beramiz. Maximum (x, y) x argument qiymatini a parametrga, y argument qiymatini esa b parametrga biriktiradi. Yuqoridagi ikkala holatda ham funksiya bir xilda ishlaydi.

Mahalliy(локальные) parametrlar.

Funksiyaning ichida e’lon qilingan o‘zgaruvchilar xuddi shu nomdagi funksiya tashqarisida e’lon qilingan o‘zgaruvchilar bilan xech qanday bog‘liklikka ega emas, ya’ni bu o‘zgaruvchilar mahalliy o‘zgaruvchilar hisoblanadi. Bu o‘zgaruvchining ko‘rinish maydoni(область видимости) deyiladi. Har bir o‘zgaruvchining

koʻrinish maydoni oʻzgaruvchi aniqlangan amallar bloki va shu oʻzgaruvchi e’lon qilingan nuqta bilan chegaralangan.
Misol:

```
x = 99
def func(x):
    print("x teng", x)
    x = 9
    print("Mahalliy x qiymatini", x, "ga oʻzgartiramiz")
func(x)
print("x qiymati qanday boʻlsa, shunday turibdi", x)
```

Natija:

```
>>> x teng 99
Mahalliy x qiymatini 9 ga oʻzgartiramiz
x qiymati qanday boʻlsa, shunday turibdi 99
```

Bu qanday ishlaydi:

Funksiyaning birinchi qatorida, x oʻzgaruvchisiga biriktirilgan qiymatni birinchi bor chop etishda Python funksiyaning yuqorisida, ya’ni asosiy blokda e’lon qilingan parametrning qiymatidan foydalanadi.

Soʻng x oʻzgaruvchiga 2 qiymatni biriktiramiz. x oʻzgaruvchisi bizning funksiyamiz uchun mahalliy hisoblanadi. Shuning uchun x oʻzgaruvchining qiymatini funksiya ichida oʻzgartirganimizda, funksiya tashqarisida aniqlangan x oʻzgaruvchi qiymati xech qanday oʻzgarishsiz qoladi.

Dastur oxirida print funksiyasi yordamida asosiy blokda aniqlangan x oʻzgaruvchisi qiymatini chop etamiz va funksiya ichida x oʻzgaruvchisi qiymatining oʻzgartirilishi xech qanday ta’sir qilmaganligini koʻrishimiz mumkin boʻladi.

"global" zahira soʻzi (зарезервированное слово)

Funksiya ichidagi biror oʻzgaruvchiga yuqori daRejadagi biror qiymatni (funksiya yoki klassning koʻrinish maydoni emas) biriktirish uchun Pythonga uning nomi mahalliy emasglobal ekanligini koʻrsatish darkor. Buni "global" zahira soʻzi yordamida amalga oshirish mumkin. "global" zahira soʻzini koʻrsatmasdan funksiya tashqarisida aniqlangan biror oʻzgaruvchi qiymatini biriktirib boʻlmaydi.

Funksiya tashqarisida aniqlangan biror oʻzgaruvchi qiymatini funksiya ichida ishlatish mumkin (faqat sharti funksiya ichida xuddi shu nom bilan biror oʻzgaruvchi aniqlanmagan boʻlishi kerak). Lekin

bunday holatlardan qochish kerak. Sababi dastur kodini o‘qiyotgan odamga o‘zgaruvchi qayerda aniqlanganligi tushunarsiz bo‘lishi mumkin.
"global" zahira so‘zini ishlatish esa o‘zgaruvchi eng yuqori blokda aniqlanganini aniq ko‘rsatadi.
Misol:

```
x = 99
def func():
    global x
    print("x teng", x)
    x = 9
    print("Global x qiymatini", x, "ga o‘zgartiramiz")
func()
print("x ning qiymati", x)
```

Natija:

```
>>>x teng 99
Global x qiymatini 9 ga o‘zgartiramiz
x ning qiymati 9
```

Bu qanday ishlaydi:
"global" zahira so‘zi funksiya ichidagi o‘zgaruvchini global o‘zgaruvchi ekanligini bildiradi va bu shuni anglatadiki qachonki biz bu o‘zgaruvchi qiymatini funksiya ichida o‘zgartirsak, bu o‘zgarish asosiy blokdagi o‘zgaruvchi qiymatida xam aks etadi.
Bitta "global" zahira so‘zi yordamida bir necha o‘zgaruvchini aniqlash mumkin:

```
global x, y, z
```

"nonlocal" zahira so‘zi

Biz qanday qilib global va mahalliy o‘zgaruvchilarga murojat qilishni ko‘rib chiqdik. Ya’na bir korinish maydoni borki, bu maydon global va mahalliy maydonlar o‘rtasini bildiruvchi "mahalliy emas" (нелокальной) ko‘rinish maydoni mavjud. Bu ko‘rinish maydoni siz funksiya ichida funksiya aniqlaganingizda uchraydi.

Pythonda funksiyani xohlagan joyingizda aniqlashingiz mumkin.
Misol:

```
def func_outer():
    x = 2
    print("x teng", x)
    def func_inner():
```

```
        nonlocal x
        x = 5
    func_inner()
    print("maxalliy x", x, "ga o‘zgardi")
func_outer()
```

Natija:

```
>>>x teng 2
maxalliy x 5 ga o‘zgardi
```

Bu qanday ishlaydi:

func_inner funksiyasi birinchi qatorida aniqlangan x o‘zgaruvchi mahalliy ko‘rinish maydonida emas (o‘zgaruvchini aniqlash func_inner blokiga kirmaydi), global ko‘rinish maydonida ham emas (o‘zgaruvchi dasturning asosiy blokida ham emas). Biz aynan x o‘zgaruvchini ishlatish uchun uni quyidagich e’lon qilamiz: nonlocal x.

"nonlocal x" yozuvini "global x" yozuviga, keyin esa "global" zahira so‘zini o‘chirib tashlang va bu ikki holdagi o‘zgarishlarni kuzating.

Argumentlarning qiymat ko‘rsatilmaganda ishlatiladigan qiymati (Значения аргументов по умолчанию)

Ko‘p hollarda funksiyaning ba’zi parametrlari majburiy bo‘lmasligi mumkin. Agar dasturchi bunday parametrlar uchun qiymat bermasa, u holda funksiya aniqlanishida ko‘rsatilgan qiymat (значение по умолчанию) ishlatiladi. Buning uchun funksiya e’lon qilinish joyida parametr nomidan keyin o‘zlashtirish operatori (=) va undan so‘ng biror qiymat beriladi.

E’tibor bering, funksiya aniqlanishida ko‘rsatilgan qiymat (значение по умолчанию) konstanta bo‘lishi kerak. Yoki aniqroq qilib aytganda qiymati o‘zgarmas bo‘lishi kerak.

Misol:

```
def say(xabar, qiymat = 1):
    print(xabar * qiymat)
say(’Salom’)
say(’Dunyo‘, 5)
```

Natija:

```
>>>Salom
DunyoDunyoDunyoDunyoDunyo
```

Bu qanday ishlaydi:say funksiyasi satrni ko‘rsatilgan miqdorda ekranga chop etish uchun foydalaniladi. Agar biz qiymat ko‘rsatmasak

satr bir marta chop etiladi. Biz bunga qiymat parametriga boshlang‘ich 1 qiymatini berib erishishimiz mumkin.

Say funksiyasini birinchi marta chaqirganimizda biz unga faqat satr qiymatini beramiz va funksiya uni bir marta chop etadi. Ikkinchi marta chaqirganimizda esa berilgan satrni 5 marta takrorlashni ko‘zda tutgan holda unga 5 qiymatli argument beramiz. Boshlang‘ich qiymat bilan parametrlar ro‘yxati oxiridagi parametrlar qiymatlanishi mumkin. Shunday qilib boshlang‘ich qiymatli parametrlar qiymatsiz parametrlardan oldin kelmasligi kerak.

Bu parametrlarga qiymatlar ularning joylashuviga qarab biriktirilishi bilan bog‘liq. Misol uchun, def func(a, b=5) mumkin, lekin def func(a=5, b) kabi e’lon qilish mumkin emas.

Kalit argumentlar (Ключевые аргументы)

Agar biror funksiya ko‘p parametrga ega bo‘lsa va uni chaqirish joyida bu parametrlardan faqat ayrimlariga qiymat ko‘rsatilishi kerak bo‘lsa, u holda bu parametrlar qiymatlari ularning nomi bo‘yicha berilishi mumkin – bu kalit parametrlar deyiladi. Bu holda argumentlarni berish uchun ularning pozitsiyasi emas, nomi (kalit) ishlatiladi.

Bunday uslubni ikki xil afzalligi mavjud: birinchidan, funksiyadan foydalanish oson bo‘ladi. Sababi argumentlarning ketma-ketligini rioya qilish zarur bo‘lmaydi; ikkinchidan, faqat tanlangan argumentlarga qiymat berish mumkin bo‘ladi va qolgan argumentlar boshlang‘ich qiymatlarga ega bo‘ladi.

Misol:

```
def func(a, b=5, c=10):
   print(’a teng‘, a, ’, b teng‘, b, ’, c teng‘, c)
func(3, 7)
func(25, c=24)
func(c=50, a=100)
```

Natija:

```
>>>a teng 3, b teng 7, c teng 10
a teng 25, b teng 5, c teng 24
a teng 100, b teng 5, c teng 50
```

Bu qanday ishlaydi:

func nomli funksiya bitta boshlang‘ich qiymatsiz parametr va ikkita boshlang‘ich qiymatli parametrga ega.

func(3, 7) funksiyaning birinchi chaqirilishida a parametr

3, b parametr 7, c parametr esa boshlang‘ich qiymat 10 qabul qiladi.
func(25, c=24) funksiyaning ikkinchi chaqirilishida a parametr argument pozitsiyasi bo‘yicha 25 qiymat qabul qiladi. Shundan song c parametr nom ya’ni kalit parametr bo‘yicha 24 qiymat qabul qiladi. b parametr esa boshlang‘ich qiymatga ko‘ra 5 qiymat qabul qiladi.
func(c=50, a=100) funksiyaning uchunchi chaqirilishida biz barcha qiymatlar uchun kalit argumentlardan foydalanamiz. E’tibor bering, funksiyani e’lon qilishda c parametr aparametrdan keyin ko‘rsatilgan bo‘lsa ham, qiymat biriktirish vaqtida c parametrga aparametrdan oldin qiymat biriktiryapmiz.
Ixtiyoriy miqdordagi parametrlar (Переменное число параметров)
Ba’zan funksiyani ixtiyoriy miqdordagi parametr qabul qila oladigan holda e’lon qilish kerak bo‘lishi mimkin. Bunga yulduzchalar yordamida erishishimiz mumkin.
Misol:

```
def total(initial=5, *numbers, **keywords):
count = initial
for number in numbers:
count += number
for key in keywords:
count += keywords[key]
return count
print(total(10, 1, 2, 3, vegetables=50, fruits=100))
```

Natija:
>>>166
Bu qanday ishlaydi:
Agar biz parametrni yulduzcha (*) bilan e’lon qiladigan (misol uchun param) bo‘lsak, shu pozitsiyadan boshlab oxirigacha bo‘lgan barcha pozitsiya argumentlari param nomlik kortejga yig‘iladi. Bizning holatda numbers kortejida (1, 2, 3) qiymat mavjud bo‘ladi.
Shunga o‘xshash agar biz ikkita yulduzcha (**) bilan parametrni e’lon qiladigan (misol uchunparam) bo‘lsak shu pozitsiyadan boshlab oxirigacha bo‘lgan kalit argumentlar param nomli lug‘at(словарь)ga yig‘iladi. Bizning holatda keywords lug‘atida {’vegetables’: 50,’fruits’: 100} qiymat mavjud bo‘ladi.
Biz kortej va lug‘atlarni imkon qadar keyingi darslarimizda o‘rganamiz.

Faqat kalit argumentlar
Agar ba’zi kalit argumentlarga faqat kalit bo‘yicha murojaat qilish kerak bo‘lsa, u holda yulduzchali parametrdan so‘ng bu argumentni e’lon qilish mumkin.
Misol:
def total(initial=5, *numbers, extra_number):
count = initial
for number in numbers:
count += number
count += extra_number
print(count)
total(10, 1, 2, 3, extra_number=50)
total(10, 1, 2, 3)
# Xatolik yuz beradi sababi biz ’extra_number’ uchun qiymat bermadik.
Natija:
>>>66
Traceback (most recent call last):
File "keyword_only.py", line 12, in <module>
total(10, 1, 2, 3)
TypeError: total() needs keyword-only argument extra_number
Bu qanday ishlaydi:
Yulduzchali parametrdan keyin faqat kalitl parametrlar e’lon qilinadi. Agar bunday argumentlar uchun boshlang‘ich qiymat berilmagan bo‘lsa va funksiyani chaqirilish joyida qiymat berilmasa, xatolik yuz beradi.
Agar sizga faqat kalit argumentlar kerak bo‘lsa, lekin yulduzchali parametr kerak bo‘lmasa, u xolda shunchaki bitta nomsiz yulduzcha ko‘rsatishingiz mumkin:
def total(initial=5, *, number).
return operatori. return operatori funksiyani to‘xtatish va undan chiqish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga funksiyadan biror qiymat qaytarish uchun ham xizmat qiladi.
Misol:
def maximum(x, y):
if x > y:
return x
elif x == y:

return ’Sonlar teng.’
else:
return y
print(maximum(2, 3))
Natija:
>>>3
Bu qanday ishlaydi:
maximum funksiyasi berilgan ikki parametrdan kattasini aniqlaydi. Bu funksiya oddiy if..elseshart operatorini sonlarning kattasini aniqlashda foydalanadi va aniqlangan katta sonni qaytaradi.
Shunga e’tibor beringki, return operatori qaytarish qiymatisiz return None ifodasiga teng kuchli hisoblanadi.

None Pythondagi xech narsani ifodalovchi maxsus ma’lumot turi hisoblanadi. Misol uchun o‘zgaruvchi qiymatiga None biriktirilgan bo‘lsa, unga xech qanday qiymat biriktirilmaganiligini bildiradi.
Agar siz funksiyada return operatorini ishlatmagan bo‘lsangiz, u holda har bir shunday funksiya tugash joyida oshkormas holda (в неявной форме) return None ifodasi mavjud bo‘ladi. Buni amalda ko‘rish uchun quyidagi dastur kodini ishga tushirib ko‘ring.
def someFunction():
pass
print(def someFunction())
pass operatori Pythonda bo‘sh buyruqlar blokini ifodalash uchun ishlatiladi.
Xujjatlash satrlari(Строки документации)
Python xujjatlash satrlari, qisqa ifodalaganda docstrings deb nomlanuvchi o‘ziga xosligi mavjud. Bu juda muhim instrument bo‘lib siz undan albatta foydalanishingiz kerak. Sababi bu sizning dasturingizni yaxshi xujjatlash(документировать) va oson tushunishga yordam beradi. Xujjatlash satrini dastur bajarilish jarayonida funksiyadan olish mumkin.
Misol:
def maximum(x, y):
"""Ikki sondan kattasini chop etadi.
Ikkala qiymat ham butun son bo‘lishi kerak."""
x = int(x) # agar iloji bo‘lsa, butun songa konvertatsiya qilamiz
y = int(y)
if x > y :

print(x, ’katta’)
else:
print(y, ’katta’)
maximum(3, 5)
print(maximum.doc)
Natija:
>>>5 katta
Ikki sondan kattasini chop etadi.
Ikkala qiymat ham butun son bo‘lishi kerak.
Bu qanday ishlaydi:
Birinchi mantiqiy qatordagi satr funksiya uchun docstring hisoblanadi.
Docstiring modul va klasslar bilan ham qo‘llaniladi.Funksiya docstiringini ko‘p qatorli satr ko‘rinishida yozish qabul qilingan. Bu satrning birinchi qatori bosh xarf bilan boshlanadi va nuqta bilan tugaydi. Ikkinchi qator bo‘sh qoldiriladi va funksiya haqidagi to‘liq ma’lumot uchunchi qatordan boshlab yoziladi.
Shunday uslubda docstring yozish tavsiya qilinadi.
maximum funksiyasining docstringiga shu funksiyaning __doc__ atributi orqali murojat qilish mumkin (Ikkita belgilash simvoliga e’tibor bering). Shuni e’tiborga olingki, python "hamma" narsani ob’yekt ko‘rinishida tasavvur qiladi.
Agar siz Pythonda help() funksiyasini ishlatgan bo‘lsangiz, demak, siz docstringni ko‘rgansiz. Bu funksiya tegishli funksiyaning doc atributini hisoblaydi va ifodali holda ekranga chop etadi. Buni yuqoridagi funksiya misolida ko‘rishingiz mumkin.
help(maximum) kodini dastur kodiga qo‘shing.

Biz funksiyalarning ko‘p qirralarini ko‘rib chiqdik, lekin bu hammasi emas. Ko‘rib chiqqanlarimiz pythonda funksiyalar bilan ishlashda duch kelishingiz mumkin bo‘lgan ko‘p hollarni qamrab olgan.

Nazorat savollari.

1. Qism dastur deganda nimani tushunasiz?
2. Funksiyalarni shakllantirish usullarini tushuntirib bering?
3. Funksiyalarni shakllantirishni umumiy ko‘rinishi?
4. Global va lokal o‘zgaruvchilar deganda nimani tushunasiz?
5. Funksiyaga argument berishni soddalashtirish jarayonini tushuntirib bering?

11-ma’ruza.Pythonda fayllar bilan ishlash.

Reja:

1. Fayllarni faollashtirish, Fayllar ustida amallar bajarish.
2. Fayldan ma’lumot o‘qish.
3. Fayl tarkibiga ma’lumotlarni yozish.
4. Fayl tarkibidagi ma’lumotlarni o‘chirish.

Pythonda turli xil fayl turlari bilan ishlash imkoniyati mavjud bo‘lib, shartli ravishda ularni ikki turga bo‘lish mumkin: matn va binar fayllar. Matn fayllari, masalan, kengaytmasi cvs, txt, html, umuman, matn shaklida ma’lumot saqlaydigan barcha fayllarlarni o‘z ichiga oladi. Binar fayllar tasvirlar, audio va video fayllar va boshqalardan iborat. Fayl turiga qarab u bilan ishlash biroz farq qilishi mumkin.

Fayllar bilan ishlaganda, quyidagi tartibdagi operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirish talab etiladi:

open() metodi yordamida faylni ochiladi;

read() metodi yordamida faylni o‘qish yoki write() metodi yordamida faylga yozish amalga oshiriladi;

close() metodi faylni yopadi.

1.1. Fayllarni ochish va yopish

Fayllar bilan ishlash uchun avval faylni *open*() metodi yordamida ochish zarur. *open*() metodidan quyidagi ko‘rinishda foydalaniladi:

open(file, mode)

Funksiyaning birinchi parametri faylning yo‘lini ifodalaydi. Fayl yo‘li absolyut bo‘lishi mumkin, ya’ni disk harfidan boshlanadi, masalan, C: //qandaydirpapka/somefile.txt. Yoki nisbiy bo‘lishi mumkin, masalan, qandaydirpapka/ somefile.txt — bu holda, fayl Python ishlaydigan skript joylashgan katologda hosil qilinadi. Ikkinchi argument *mode* — bu faylni ochish rejimi bo‘lib, fayl bilan qanday ish bajarilishiga qarab, 4 turdagi fayllar bilan ishlash rejimidan birini qo‘llash mumkin:

r (*Read*) — Fayl o‘qish uchun ochadi. Fayl topilmasa, *FileNotFoundError* xatolik qaytaradi;

w (*Write*). Fayl yozish uchun ochadi. Agar fayl yo‘q bo‘lsa, u hosil bo‘ladi. Bunday fayl allaqachon mavjud bo‘lsa, u yangidan yaratiladi va shunga mos ravishda eski ma’lumotlar o‘chiriladi.

a (*Append*). Faylni qayta yozish uchun fayl ochiladi. Agar fayl yo‘q bo‘lsa, u hosil bo‘ladi. Bunday fayl allaqachon mavjud bo‘lsa,

ma’lumotlar oxiridan yozish davom ettiriladi.
b (*Binary*). Binar fayllar bilan ishlash uchun foydalaniladi. *w* va r kabi rejimlar kombinatsiyasi bilan birgalikda ishlatiladi.

Fayl bilan ishlashni tugatgandan so‘ng uni *close()* metodi bilan yopish kerak bo‘ladi. Ushbu metod fayl bilan bog‘liq barcha resurslarni bo‘shatadi.

Misol uchun, "salom.txt" matnli faylini yozish uchun ochamiz:

```
meningfaylim = open("salom.txt", "w")
meningfaylim.close()
```

Faylni ochishda yoki u bilan ishlashda turli xil istisno holatlarga duch kelish mumkin, masalan, unga ruxsat yo‘q bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda, dastur ishlash jarayonida xatolik yuz beradi va dastur bajarilishi *close()* metodi chaqirilishiga yetib bormaydi va shunga muvofiq fayl yopilmaydi. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun istisnolardan foydalaniladi:

```
try:
    somefile = open("salom.txt", "w")     try:
        somefile.write("Salom olam")     except Exception as e:
        print(e)     finally:
        somefile.close() except Exception as ex:
    print(ex)
```

Bu erda, fayl bilan bajariladigan barcha amallar ketma-ketligi *try* blokida yoziladi. Agar biror bir istisno to‘satdan kelib chiqsa, u holda *finally* blokida fayl blokirovka qilinadi.

Fayllar bilan ishlashning yanada qulayroq *with* konstruktsiyasi mavjud:

```
with open(file, mode) as file_obj:
    #buyruqlar
```

Bu konstruktsiya ochiq fayl uchun *file_obj* o‘zgaruvchi aniqlanadi va buyruqlar ketma-ketligi bajariladi. Ular bajarilgandan so‘ng, fayl avtomatik ravishda yopiladi. Blokda amallar ketma-ketligini bajarishda istisnolar yuzaga kelsa ham, fayl avtomatik ravishda yopiladi.

with konstruktsiyasi yordamida, yuqoridagi misolni quyidagicha qayta yozish mumkin:

```
with open("salom.txt", "w") as somefile:
    somefile.write("Salom Python")
```

1.2. Matn fayllari. Matn faylga yozish

Matn faylini yozish uchun ochishda *w* (qayta yozish) yoki *a* (yozuv qo‘shish) rejimini qo‘llaniladi. So‘ngra, faylga yozish uchun *write(str)* metodidan foydalanilib, *str* parametriga yozilishi kerak bo‘lgan satr uzatiladi. Shuni eslatib o‘tish joizki, bu parametr satr bo‘lishi shart, shuning uchun raqamlar yoki boshqa turdagi ma’lumotlarni yozish zarur bo‘lsa, dastlab ularni satr turiga keltirish talab qilinadi.
"salom.txt" fayliga ba’zi ma’lumotlarni yozamiz:

```
1  with open("salom.txt", "w") as fayl:
2      fayl.write("salom olam")
```

Joriy Python skriptining joylashgan papkasini ochsak, u yerda salom.txt faylini ko‘rish mumkin. Ushbu fayl har qanday matn muharriridan ochilishi mumkin va agar kerak bo‘lsa o‘zgartirilishi ham mumkin. Keling, ushbu faylga yana bitta qator qo‘shamiz:

```
1  with open("salom.txt", "a") as fayl:
2      fayl.write("\nHayr, olam")
```

Agar satrni yangi qatorga yozish zarur bo‘lsa, u holda, yuqoridagi kabi, yozilayotgan satr oldidan "\n"(yangi satrga o‘tish belgisi) qo‘yish yetarli bo‘ladi.
Yukunida salom.txt faylida quyidagi matn hosil bo‘ladi: *salom olam*
Hayr, olam
Faylga yozishning yana bir usuli — ma’lumotlarni konsolga chiqarish uchun ishlatiladigan standart *print()* metodan foydalanish orqali amalga oshiriladi:

```
1  with open("salom.txt", "a") as salom_fayl:    print("Salom, olam",
2  file=salom_fayl)
```

print metodi yordamida ma’lumotlarni faylga chiqarish uchun faylning nomi *file* parametri orqali beriladi va birinchi parametr faylga yoziladigan ma’lumotni ifodalaydi.
2. Fayldan o‘qish
Fayldan o‘qish uchun *r* (*Read*) rejimida ochiladi va uning mazmunini turli usullar bilan o‘qish mumkin:
readline() — fayldan bir qator o‘qiydi;
read() — faylning butun tarkibini bir qatorga o‘qiydi;
readlines() - faylning barcha satrlarini ro‘yxatga oladi.

Masalan, biz yuqorida yozilgan fayllarni satrlar bo‘yicha ko‘rib chiqamiz:

```
1  with open("salom.txt", "r") as fayl:     for satr in fayl:
2          print(satr, end="")
3
```

Biz, albatta, har bir qatorni o‘qish uchun *readline()* metidini ishlatmasak ham, har bir yangi satrni olish uchun ushbu metod avtomatik ravishda chaqiriladi. Shuning uchun ham, *readline()* metodini siklda chaqirishdan ma’no yo‘q va satrlar yangi satr "\n" belgisi bilan ajratilganligi uchun, yangi satrga chop qilish zaruryati qolmaydi va *end=""* qiymati *print* metodining ikkinchi parametri sifatida uzatiladi.

Endi satrlarni alohida o‘qish uchun *readline()* metodini to‘g‘iridan-to‘g‘ri chaqiramiz:

```
1  with open("salom.txt", "r") as fayl:
2     str1 = fayl.readline()     print(str1, end="")
3
```

```
4     str2 = fayl.readline()     print(str2)
5
```

Konsol ektaniga quyudagi natijalar chiqariladi:
salom olam hayr, olam *readline()* metodini alohida qatordagi satrlarni o‘qish uchun *while* siklida ham foydalanish mumkin:

```
1  with open("salom.txt", "r") as fayl:
2     satr = fayl.readline()     while satr:
3        print(satr, end="")        satr = fayl.readline()
4
5
```

Fayl kichik bo‘lsa, *read*() metodidan foydalanib, uni birdan o‘qishingiz mumkin:

```
1  with open("salom.txt", "r") as fayl:
2     mazmun = fayl.read()     print(mazmun)
3
```

Hamda, *readlines()* metodi yordamida fayldagi barcha satrlar

ro‘yxatga o‘qib olinadi, ya’ni elementlari fayldagi satrlardan tashkil topgan ro‘yxat hosil qilinadi:

```
1  with open("salom.txt", "r") as faly:
2      mazmun = fayl.readlines()       str1 = mazmun [0]       str2 =
3  mazmun [1]     print(str1, end="")     print(str2)
4
5
6
```

Ba’zida fayldagi ma’lumotlar ASCIIdagi belgilardan farqlanishi mumkin. Ushbu holatda fayldan berilganlarni o‘qish to‘g’ri bo‘lishi uchun kodlash parametrini ishlatib kodlashni aniq belgilab olishimiz mumkin:

```
1  faylnomi = "salom.txt" with open(faylnomi, encoding="utf8") as
2  file:
3      matn = file.read()
```

Quyidagi dastur orqali foydalanuvchi tomonidan kiritilgan satrlar massivi dastlab faylga yozish amalga oshirilgan, so‘ngra ularni fayldan konsolga qayta o‘qib, chop qilish amalga oshirilgan:

```
1    # fayl nomi
2    FILENAME = "habarlar.txt" # bo‘sh ro‘yxat aniqlaymiz xabarlar =
3 4  list()
5     for i in range(4):
6        xabar = input("Satrni kiriting " + str(i + 1) + ": ")
7    xabarlar.append(xabar + "\n")
8
9    # ro‘yxatni faylga yozish with open(FILENAME, "a") as fayl:    for
10   xabar in xabarlars:         fayl.write(xabar)
11
12   # xabarlarni fayldan o‘qiymiz  print("Xabarlarni o‘qish") with
13   open(FILENAME, "r") as fayl:     for xabar in fayl:
14         print(xabar, end="")
15
16
17
18
19
```

Dastur ishlashining namunasi:

```
1  Satrni kiriting 1: salom
2  Satrni kiriting 2: tinchlik so‘zi
3  Satrni kiriting 3: buyuk ish
4  Satrni kiriting 4: Python
5  Xabarlarni o‘qish Salom tinchlik so‘zi buyuk ish
6  Python
7
8
9
```

Ma’lumotni qulay shaklda saqlashning keng tarqalgan fayl formatlaridan biri csv formatidir. CSV faylidagi har bir satr vergul bilan ajratilgan alohida ustunlardan iborat bo‘lgan yozuv yoki satrni aks ettiradi. Aslida, bu format "Vergul bilan ajratilgan qiymatlar (Comma Separated Values)" deb nomlanadi. CSV formati matnli fayl

formati bo‘lsa-da, Python u bilan ishlashni soddalashtirish uchun maxsus ajralmas CSV modulini taqdim etadi. Quyidagi misolda modulning ishini ko‘rib chiqamiz:

```
import csv
FILENAME = "users.csv"
 users = [
   ["Ali", 25],
   ["Sobir", 32],
   ["Dilnoza", 14]
]  with open(FILENAME, "w", newline="") as fayl:
   writer = csv.writer(fayl)     writer.writerows(users)
 with open(FILENAME, "a", newline="") as fayl:
   user = ["Shaxnoza", 18]              writer = csv.writer(fayl)
writer.writerow(user)
```

Faylga ikki o‘lchovli ro‘yxat yoziladi – har bir satr bitta foydalanuvchini ifodalaydigan jadval. Har bir foydalanuvchi esa ikkita maydon — ism va yoshni o‘z ichiga oladi. Ya’ni, uchta satr va ikki ustunli jadvalni ifodalaydi.

Yozish uchun fayl ochilganda, uchinchi parametr sifatida *newline=""* qiymati ko‘satildi — bo‘sh satr operatsion tizimidan qat’i nazar, fayllardan to‘g‘ri satrlarni o‘qishga imkon beradi.

Yozish uchun *csv.writer(file)* funktsiyasi tomonidan qaytariladigan *writer* obyektini olishimiz kerak. Ushbu funktsiyaga ochiq fayl topshiriladi. Hamda, mos ravishda yozish *writer.writerows(users)* metodi yordamida amalga oshiriladi. Bu usul qatorlar to‘plamini parametr sifatida oladi. Bizning holatimizda bu ikki o‘lchovli ro‘yxat hisoblanadi.

Agar bitta yozuv qo‘shish zarur bo‘lsa, ya’ni, bir o‘lchamli ro‘yxat, masalan, ["Shaxnoza", 18], bu holda *writer.writerow(user)* metodidan foydalaniladi. Natijada, skriptni ishga tushirgandan so‘ng, quyidagi tarkibga ega bo‘lgan *users.csv* fayli shu papkada paydo bo‘ladi:

```
Ali,25
Sobir,32
Dilnoza,14
Shaxnoza,18
```

Fayldan o‘qish uchun, aksincha, *reader* obyektini yaratishimiz kerak:

```
import csv
FILENAME = "users.csv"
 with open(FILENAME, "r", newline="") as fayl:
   reader = csv.reader(fayl)     for row in reader:
       print(row[0], " — ", row[1])
```

reader obyektini olayotganda, biz uning barcha satrlarini ko‘chirib olishimiz mumkin:

```
Ali — 25
Sobir — 32
Dilnoza — 14
Shaxnoza — 18
```

Yuqoridagi misolda har bir yozuv yoki satr alohida ro‘yxat bo‘lib, masalan, ["Shaxnoza", 18]. Bundan tashqari, CSV modullari lug‘atlar bilan ishlash uchun maxsus qo‘shimcha xususiyatlarga ega. Xususan, *csv.DictWriter()* funktsiyasi faylga yozish imkonini beruvchi *writer* obyektni qaytaradi va *csv.DictReader()* funktsiyasi esa fayldan o‘qish uchun *reader* obyektini qaytaradi.

Masalan:

Qatorlarni *writerow()* va *writerows()* metodlari yordamida ham yozish mumkin. Ammo endi har bir satr alohida lug‘at, hamda, ustun sarlavhalari *writeheader()* metodidan foydalanib yoziladi va ikkinchi parametr sifatida *csv.DictWriter* metodiga ustunlar to‘plami uzatiladi.

Ustunlardan foydalangan holda satrdan berilganlarni o‘qishda satr ichidagi alohida qiymatlarga *row["ism"]* ko‘rinishida murojaat qilishimiz mumkin.

Binar fayllarda, matnli fayllardan farqli o‘laroq, ma’lumotlar

baytlar majmui sifatida saqlanadi. Pythonda ular bilan ishlash uchun *pickle* – ichki modul kerak bo‘ladi. Ushbu modul ikkita metodni taqdim etadi:

dump(obj, file) — obyektni ikkilik faylga yozadi;

load(file) — binar fayldan obyektga ma’lumotlarni o‘qiydi.

O‘qish yoki yozish uchun binar faylni ochishda yozishni ("w") yoki o‘qish ("r") rejimidan tashqari "b" rejimidan foydalanish kerakligini ham hisobga olish kerak. Masalan, ikkita obyektni saqlash kerak bo‘lsin:

```
import csv
FILENAME = "users.csv"
 users = [
    {"ism": "Ali", "yosh": 25},
    {"ism": "Sobir", "yosh": 32},
    {"ism": "Dilnoza", "yosh": 14}
]  with open(FILENAME, "w", newline="") as fayl:
    ustunlar = ["ism", "yosh"]
    writer       =       csv.DictWriter(fayl,       fieldnames=ustunlar)
writer.writeheader()

    # bir qancha qatorlarni yozish     writer.writerows(users)

    user = {"ism": "Shaxnoza", "yosh": 18}
    # bitta qatorni yozish     writer.writerow(user)
 with open(FILENAME, "r", newline="") as fayl:
    reader = csv.DictReader(fayl)     for row in reader:
        print(row["ism"], "-", row["yosh"])
```

```
import pickle
FILENAME  =  "user.dat"  ism  =  "ali"  yosh  =  25     with
open(FILENAME, "wb") as file:
    pickle.dump(ism, file)     pickle.dump(yosh, file)
 with open(FILENAME, "rb") as file:
    ism = pickle.load(file)     yosh = pickle.load(file)
    print("Ism: ", ism, "\tYosh: ", yosh)
```

dump() funksiyasi bilan ikki obyekt ketma-ket yoziladi. Shu sababli, fayldan ketma-ketlikda *load()* funksiyasi yordamida o‘qiganimizda mos ravishda yozilgan obyektlarni olamiz. Dastur ishlaganda konsol ekraniga quyidagilar chiqariladi:

```
1  Ism: Ali Yosh: 25
```

Shu tarzda, faylga obyektlar to‘plamini saqlashimiz va undan o‘qib olishimiz mumkin:

```
import pickle
FILENAME = "users.dat"
 users = [
   ["Ali", 25, True],
   ["Sobir", 32, False],
   ["Dilnoza", 14, False]
]  with open(FILENAME, "wb") as file:
   pickle.dump(users, file)
 with open(FILENAME, "rb") as file:
   users_from_file = pickle.load(file)
for user in users_from_file:
       print("Ism: ", user[0], "\tYosh: ", user[1],
"\tUylangan(turmushga chiqan): ", user[2])
```

Faylga *dump()* funktsiyasidan foydalanib qanday obyekt yozilsa, fayldan *load()* funksiyasi orqali xuddi shu obyekt o‘qiladi.
Natijaning konsolga chiqarilishi:

```
1  Ism: Ali Yosh: 25 Uylangan(turmushga chiqan): True
2  Ism: Sobir Yosh: 32 Uylangan(turmushga chiqan): False
3  Ism: Dilnoza Yosh: 14 Uylangan(turmushga chiqan): False
```

Binar fayllar bilan ishlash uchun Pythonda yana bitta modul — shelve modulidan foydalanish mumkin. Obyektlarni maxsus kalitga ega faylga saqlaydi.

Keyinchalik, bu kalit yordamida avvaldan saqlangan obyektni fayldan oqib olinadi. *shelve* modul orqali ma’lumotlarni ishlash jarayoni lug‘atlarga o‘xshash, shuning uchun obyektlarni saqlash va o‘qib olish uchun kalitlardan foydalaniladi.

Faylni ochish uchun *shelve* moduli *open()* funktsiyasidan foydalanadi:

```
1  open(fayl_manzili[, flag="c"[, protocol=None[, writeback=False]]])
```

flag parametri quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:
c — faylni o‘qish va yozish uchun ochadi (*flag=c*, *flag* parametrining kelishuv bo‘yicha qiymati aynan *c* ga teng). Agar fayl mavjud bo‘lmasa, u yaratiladi;
r — fayl faqat o‘qish uchun ochiladi;
w — fayl faqat yozish uchun ochiladi;
n — fayl yozish uchun ochilgan. Agar fayl mavjud bo‘lmasa, fayl yaratiladi.
Agar mavjud bo‘lsa, u holda fayl qayta yozish uchun ochiladi.
Faylga ulanishni yopish uchun *close*() metodidan foydalaniladi:

```
1  import shelve
2  d = shelve.open(faylnomi)
3  d.close()
```

Yoki faylni *with* operatoridan foydalanib ochishingiz mumkin. Quyidagi dasturda faylga bir nechta obyektni saqlash va keyin undan o‘qib olish ko‘rsatilgan:

```
import shelve
FILENAME = "davlatlar" with shelve.open(FILENAME) as states:
states["Toshkent"] = "O\’zbekiston" states["Moskva"] =
"Rossiya" states["Pekin"] = "Xitoy" states["Seul"] = "Korea"
 with shelve.open(FILENAME) as states:
   print(states["Toshkent"]) print(states["Pekin"])
```

Berilganlarni faylga yozish – bu ma’lum bir kalitga qiymatni yuklash tarzida amalga oshiriladi:

```
1  states["Toshkent"] = "O\’beksiton"
```

Fayldan ma’lumotlarni o‘qib olish kalit bo‘yicha qiymatni olishga ekvivalent tarzda amalga oshiriladi:

```
1  print(states["Toshkent"])
```

Kalit sifatida satrlar ishlatiladi.

Ma’lumotni o‘qiyotganda so‘ralgan kalit mavjud bo‘lmasa, u holda istisno holati yuzaga keladi. Shu kabi vaziyatlarda, odatda, kalitni mavjud yoki yo‘qligini tekshirish tavsiya etiladi va buning uchun *in* operatoridan foydalaniladi, masalan:

```
1  with shelve.open(FILENAME) as states:
2     key = "Ostana"     if key in states:
3        print(states[key])
4
```

Fayldan ma’lumotlarni o‘qib olish uchun *get()* metodidan ham foydalanish mumkin. Ushbu metodning birinchi parametri – kalit bo‘lib, u orqali qiymat olinadi, ikkinchi parametr esa, birinchi parametrda keltirilgan kalit topilmasa qaytariladigan kelishuv bo‘yicha qiymatni ifodalaydi.

```
1  with shelve.open(FILENAME) as states:
2     state = states.get("Ostana", "Aniqlanmagan")     print(state)
3
```

for operatoridan foydalanib, fayldagi barcha qiymatlarni ketma-ket ko‘rib chiqish mumkin:

```
1  with shelve.open(FILENAME) as states:     for key in states:
2        print(key," — ", states[key])
3
```

keys() metodi fayldan natija sifatida barcha kalitlarni, *values()* metodi esa barcha qiymatlarni qaytaradi:

```
with shelve.open(FILENAME) as states:
   for city in states.keys():
      print(city, end=" ")  # Toshkent Moskva Pekin Seul      print()
for country in states.values():
      print(country, end=" ")  # O‘zbekiston Rossiya
Xitoy Korea
```

Yana bir metod — *items()* metodi har bir elementi kalit va qiymat

juftligini tashkil qiluvchi kortejlardan iborat kortejlar to‘plamini qaytaradi:

```
1  with shelve.open(FILENAME) as states:          for state in
2  states.items():
3        print(state)
```

Natija:

```
1  ("Toshkent", "O‘zbekiston")
2  ("Moskva", "Rossiya")
3  ("Pekin", "Xitoy")
4  ("Seul", "Korea")
```

Ma’lumotlarni o‘zgartirish uchun kalitga yangi qiymat o‘zlashtirish va yangi berilganlarni qo‘shish uchun yangi kalit bo‘yicha qiymat berish kifoya:

```
import shelve
FILENAME = "states2" with shelve.open(FILENAME) as states:
states["Tashkent"] = "O‘zbekiston"      states["Moskva"] = "Rossiya"
states["Pekin"] = "Xitoy"     states["Seul"] = "Korea"
 with shelve.open(FILENAME) as states:        states["Tashkent"] =
"O‘zbekston Respublikasi"     states["Ostona"] = "Kozog‘iston"     for
key in states:
      print(key, " — ", states[key])
```

Faydan elementni o‘chirish va qiymat sifatida o‘chirilgan elementni qaytarish uchun *pop*() metodidan foydalanilib, unga birinchi parametr sifatida o‘chirilishi kerak bo‘lgan element kaliti hamda ikkinchi parametriga faylda birinchi parametrda ko‘rsatilgan kalit mavjud bo‘lmasa natija sifatida qaytariladigan kelishuv bo‘yicha qiymat beriladi:

```
with shelve.open(FILENAME) as states:
    state = states.pop("Buxoro", "Topilmadi")     print(state)

```

del operatorini ham o‘chirish uchun ishlatilishi mumkin:

```
with shelve.open(FILENAME) as states:
    del states["Pekin"]  # Pekin kalit bilan obyektni o‘chirish

```

clear() metodi yordamida hamma elementlarni o‘chirish mumkin:

```
with shelve.open(FILENAME) as states:
    states.clear()
```

Kataloglar va fayllar bilan ishlash uchun bir qancha imkoniyatlar ichki *os* moduli tomonidan ta’minlanadi. Ushbu modul ko‘p funktsiyani o‘z ichiga olgan bo‘lsada, faqat asosiylarini ko‘rib chiqamiz:
mkdir() – yangi papka yaratadi;
rmdir() – papkani o‘chiradi;
rename() – fayl nomini o‘zgartiradi; remove() – faylni o‘chiradi.
6. Papkalarni yaratish va o‘chirish
Papka yaratish uchun *mkdir()* funksiyasidan foydalaniladi, unga yaratilayotgan papkaga yo‘li beriladi:

```
import os
#Skirpt joylashgan adresga nisbiy yo‘l os.mkdir("hello") # absolyut adres os.mkdir("c://adizova")
os.mkdir("c://adizova/hello")
```

Papkani o‘chirish uchun *rmdir()* funksiyasidan foydalanilib, o‘chirilishi kerak bo‘lgan papakanining yo‘li beriladi:

```
import os
#Skirpt joylashgan adresga nisbiy yo‘l os.rmdir("hello") # absolyut adres
os.rmdir("c://somedir/hello")
```

Fayllarni qayta nomlash uchun *rename(source, target)* funksiyasidan

ishlatiladi, birinchi parametrda manba fayl yo‘li, ikkinchisida esa yangi fayl nomi beriladi. Fayl joylashgan yo‘lini berishda ham mutlaq va ham nisbiy yo‘llar berilishi mumkin. Misol uchun, “*somefile.txt*” fayli “*C://SomeDir/*” papkasida joylashganligini tasavvur qiling. Uni "*hello.txt*" fayliga o‘zgartirish:

```
1  import os
2  os.rename("C://SomeDir/somefile.txt",
3  "C://SomeDir/hello.txt")
4
```

Biror faylni o‘chirish uchun *remove()* funktsiyasida foydalaniladi. Ushbu funksiyaga parametr sifatida o‘chirilishi lozim bo‘lgan fayl yo‘li beriladi, masalan:

```
1  import os
2  os.remove("C://SomeDir/hello.txt")
3
```

Agar mavjud bo‘lmagan faylni ochishga harakat qilinsa, u holda Python
FileNotFoundError istisno holati ro‘y berganligi to‘g’risida xatolik xabarini qaytaradi. Bunday istisno holatini uchun *try...except* konstruksiyasidan foydalanishimiz mumkin. Biroq, faylni ochishdan avval *os.path.exists(path)* metodi yordamida fayl mavjudligini tekshirish lozim. Tekshirilishi kerak bo‘lgan yo‘l bu metodga uzatiladi:

```
filename = input ("Faylning yo‘lini kiriting:")
if os.path.exists(filename):
    print("ko‘rsatilgan fayl mavjud")
else:
    print("Fayl mavjud emas")
```

Nazorat savollari.

1. Fayl deb nimaga aytiladi?
2. Dasturlashda qanday kengaytmali fayllardan foydalaniladi?
3. Dasturlashda fayl nomi qanday qismlardan tashkil topgan?
4. Fayllarni fizik va mantiqiy nomlarini bog‘lashning umumiy ko‘rinishi?
5. Fayllarni o‘qish uchun faollashtirishning umumiy ko‘rinishini?

12-ma’ruza.Istisnolar (Exceptions).

Reja:

1. Python dasturlash tilida xatoliklar bilan ishlash.
2. Xatoliklar turlari.
3. Ma’lum turdagi xatolarni ushlash

Ba’zan dastur ishlashi davomida istisno holatlar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, mavjud bo‘lmagan faylni o‘qishga bo‘lgan harakat yoki dasturdagi no‘malum buyruqlar. Bunday holatlar exception’lar yordamida hal qilinadi.

Agar biz print funksiyasini Print shaklida chaqiradigan bo‘lsak, python interpretatori bizga sintaksis xatolikni ko‘rsatadi.

```
>>> Print("Salom dunyo")
Traceback (most recent call last):
File "<stdin>", line 1, in <module>
NameError: name ’Print’ is not defined
>>> print("Salom dunyo")
Salom dunyo
```

E’tibor bergan bo‘lsangiz, NameError xatoligi chiqarildi hamda qayerda shu xatolik qayd qilingani ham ko‘rsatildi. Bu holda xatoliklarni qayta ishlovchisi harakatga tushadi.

Exceptionlar

Foydalanuvchidan nimadir kiritishini so‘raymiz, so‘ngra Ctrl + d tugmalarini bosamiz va nima bo‘lishini kuzatamiz.

```
>>> s = input("Nimadir kiriting –> ")
Nimadir kiriting –> Traceback (most recent call last):
File "<stdin>", line 1, in <module>
EOFError
```

Python EOFError nomli xatolikni chiqardi. Bu xatolik kutilmagan joyda (Ctrl + dtugmalari yordamida kiritiladigan) fayl oxiri (end of file) belgisi qayd qilinganini bildiradi.

Exception – istisnolarni qayta ishlash

Exception’larni try . . except operatori yordamida qayta ishlash mumkin. Bunda hamma odatiy buyruqlar try blokiga joylashtiriladi, istisnolarni qayta ishlovchilari esa except blokiga joylashtiriladi.

Misol: (try_except.py nomi bilan saqlang.)

```
try:
    text = input(’Nimadir kiriting --> ’)
```

```
except EOFError:
    print('Nega EOF qildigiz?')
except KeyboardInterrupt:
    print('Siz amallarni bekor qildingiz.')
else:
    print('Siz {0} kiritdingiz.'.format(text))
```

Natija:

```
$ python try_except.py
Nimadir kiriting → # Ctrl + d ni bosing
Nega EOF qildingiz?
$ python try_except.py
Nimadir kiriting → # Ctrl + c ni bosing
Siz amallarni bekor qildingiz.
$ python try_except.py
Nimadir kiriting → xatosiz
Siz xatosiz kiritdingiz.
```

Bu qanday ishlaydi:

Bu yerda biz istisno/xatolik chaqirishi mumkin bo‘lgan barcha buyruqlarni trybloki ichiga joylashtirdik. So‘ng except bloki ichiga tegishli istisno/xatolikka mos keluvchi qayta ishlovchilarni joylashtirdik. except ifodasi bitta istisno/xatolikni yoki qavs ichida ko‘rsatilgan bir nechta istisno/xatoliklarni qayta ishlashi mumkin.

Agar xatolik yoki istisno nomi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, u holda barcha xatolik va istisnolar qayta ishlanadi.

Yodingizda saqlang, try ifodasi uchun hech bo‘lmaganda bitta except ifodasi bo‘lishi kerak. Aks holda try ishlatishning hech qanday ma’nosi qolmaydi.

Agar xatolik yoki istisno biror except blokida ushlab qolinmasa, u holda pythonning istisnolarni qayta ishlovchisi chaqiriladi va oynaga xatolik haqidagi xabarni chop etadi. Yuqorida bunga misol ko‘rdik.

try . . except blokiga else blokini ham qo‘shish mumkin. Bu blok hech qanday istisno yuz bermaganda ishga tushadi.

Exception – istino chaqirish

Istisnolarni raise operatori yordamida tegishli xatolik/istisno nomini bergan holda chaqirish mumkin.

Misol: (raising.py nomi bilan saqlang)

```
class ShortInputException(Exception):
```

```
    '''Foydalanuvchi klass exceptioni.'''
    def __init__(self, length, atleast):
        Exception.__init__(self)
        self.length = length
        self.atleast = atleast
try:
    text = input("Nimadir kiriting --> ")
    if len(text) < 3:
        raise ShortInputException(len(text), 3)
    # Bu yerda kerakli amallar bajarilishi mumkin.
except EOFError:
    print("Nega EOF qildingiz?")
except ShortInputException as ex:
    print("ShortInputException: Kiritilgan satr uzunligi -- {0}; minimum {1} kutilgan edi".format(ex.length, ex.atleast))
else:
    print("Exception bo‘lmadi.")
```

Natija:

```
$ python raising.py
Nimadir kiriting –> a
ShortInputException: Kiritilgan satr uzunligi — 1; minimum 3 uzunlik kutilgan edi
```

Bu qanday ishlaydi:

Bu yerda biz ShortInputException nomli o‘zimizning exception turimizni xosil qildik. U ikkita xususiyatdan (maydon) tashkil topgan: length — kiritilgan satr uzunligini saqlash uchun, atleast — dastur kutgan minimal satr uzunligi.

except blokida biz ShortInputException klasini ko‘rsatamiz u o‘z navbatidaex o‘zgaruvchisiga saqlanadi. ex o‘zgaruvchisi esa tegishlik xatolik/exception ob’yektidan tashkil topgan. except bloki ichida length va atleastxususiyatlarini ishlatib foydalanuvchiga tegishli xabarni ko‘rsatamiz.

try . . finally

Tasavvur qilaylik, dasturda fayldan o‘qib olish amali bor va dastur oxirida shu fayl to‘g‘ri yopilishi kerak. Bunga finally blokini qo‘llash bilan erishish mumkin.

Misol: (finally.py nomi bilan saqlang)

```
import time
try:
    f = open('poem.txt')

    while True: # Odatiy fayldan o‘qish usuli

        line = f.readline()

        if len(line) == 0:

            break

        print(line, end='')

        time.sleep(2) # Bir qancha vaqt kutish

except KeyboardInterrupt:

    print("!! Siz fayldan o‘qishni bekor qildingiz.")

finally:

    f.close()

    print('(Tozalash: Faylni yopish)')
```

Natija:

```
$ python finally.py
Dasturlash qiziqarli.
Agar ish zerikarli bo‘lsa,
Unga quvnoq tus berish uchun –
^C!! Siz fayldan o‘qishni bekor qildingiz.
(Tozalash: Faylni yopish)
```

Bu qanday ishlaydi:

Bu yerda biz oddiy fayldan o‘qib olish amallarini bajaryapmiz. Dastur sekin ishlashi uchun har bir chop qilingan satrdan so‘ng dastur 2 sekund uyquga ketadi (python judayam tez ishlaydi). Dasturni to‘xtatish yoki bekor qilish uchun dastur bajarilishi jarayonida Ctrl +

c bosing.

Kuzatgan bo‘lsangiz KeyboardInterrupt istisnosi yuz berdi va dastur bajarilishdan to‘xtadi. Ammo dastur bajarilishdan to‘xtashidan oldin finally bloki bajarildi va o‘qish uchun ochilgan fayl yopildi.

with operatori

Biror bir resursga try blokida murojaat qilib, so‘ngra bu resursni finally blokida bo‘shatib yuborish odatiy yo‘l sifatida ko‘riladi. Lekin bu amalni nisbatan qulayroq bajarish uchun with operatoridan foydalanish mumkin.

Misol: (using_with.py nomi bilan saqlang)

```
with open("poem.txt") as f:
    for line in f:
        print(line, end='')
```

Natija:

```
$ python using_with.py
Dasturlash qiziqarli.
Agar ish zerikarli bo‘lsa,
Unga quvnoq tus berish uchun –
Pythonni ishlating!
```

Bu qanday ishlaydi:

Natija bundan oldingi misoldagi kabi bo‘lishi kerak. Farqi shundaki, biz bu yerda open funksiyasini with operatori bilan ishlatyapmiz va shu bilan faylni avtomat yopishni with operatori zimmasiga yuklayapmiz.

poem.txt fayli teksti.

```
Dasturlash qiziqarli.
Agar ish zerikarli bo‘lsa,
Unga quvnoq tus berish uchun –
Pythonni ishlating!
```

except kalit so‘zini ishlatganimizda Python istalgan turdagi istisno holat uchun amal qiladi. Ammo biz qaysi turdagi istisno holatini tekshirishni o‘zimiz belgilashimiz mumkin. Bunday holatlarning turlari ko‘p, biz esa asosiylarini sanab o‘tamiz:

- NameError – murojaat qilinayotgan obyekt topilmasa, ishga tushadi.
- ValueError – o‘zgaruvchining qiymati unga mos bo‘lmagan turda bo‘lsa ishga tushadi. Masalan, biror harfli qiymatni son deb qabul qilmoqchi bo‘lsak, shunday bo‘ladi.

❖ TypeError - o‘zaro nomutanosib qiymatlar bilan amallar bajarilsa ishga tushadi. Masalan harfga son qo‘shmoqchi bo‘lganimizda.

❖ ZeroDivisionError – Istalgan sonni nolga bo‘lish holati bo‘lganda ishga tushadi.

Yuqorida "Run time error" xatoliklari bilan tanishgan edik. Bunday xatolar dastur bajarish jarayonida kelib chiqadi va dasturning ishlashini to‘xtatadi. Sintaks xatolikdan farqli ravishda Python bunday xatolarni dasturni bajarishdan avval aniqlay olmaydi.

Ushbu darsimizda qanday qilib mana shunday xatoliklarni jilovlashni o‘rganamiz. Maqsadimiz xatolik yuz berganda dastur to‘xtab qolishining oldini olish. Gap shundaki, dastur davomida xato yuz berganda Python maxsus exception (istisno) obyektini yaratadi. Agar bu obyekt "tutib" olinmasa, dastur bajarilishdan to‘xtaydi.

try-except

Istisno obyektlarni tutib olish uchun Pythonda maxsus try-except operatorlari bor. Bu operatorlar quyidagicha ishlaydi, try operatori badanida bajarish kerak bo‘lgan kod yoziladi, except operatori badanida esa xatolik yuz berganda bajarilishi kerak bo‘lgan kod yoziladi. Ya’ni dasturimiz to‘xtab qolmasdan bajarilaveradi.

Tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi misolni ko‘ramiz.

```
yosh = input("Yoshingizni kiriting: ")
yosh = int(yosh)
print(f"Siz {2021-yosh} yilda tug‘ilgansiz")
```

Yuqoridagi misolning 1-qatorida biz foydalanuvchidan yoshini kiritishni so‘rayabmiz. Navbatdagi qatorda esa foydalanuvchi kiritgan qiymatni int() yordamida butun songa o‘tkazayapmiz. Agar foydalanuvchi yoshini kiritganda, butun emas, o‘nlik son kiritsa bu ValueError xatoligiga olib keladi, va dastur bajarilishdan to‘xtaydi.

Keling, yuqoridagi kodni try-except yordamida yozamiz:

```
yosh = input("Yoshingizni kiriting: ")
try:
    yosh = int(yosh)
    print(f"Siz {2021-yosh} yilda tug‘ilgansiz")
except:
    print("Butun son kiritmadingiz")
print("Dastur Tugadi!")
```

.

Bu yerda ham dastavval foydalanuvchi yoshini so‘radik. int() finksiyasini esa try badani ichida yozdik, agar foydalanuvchi to‘gri qiymat kiritgan bo‘lsa kodimiz foydalanuvchi tug‘ilgan yilini hisoblab ko‘rsatadi, exception (istisno) yuz berganda esa "Butun son kiritmadingiz" xabarini konsolga chiqaradi. Lekin dastur bajarilishdan to‘xtamaydi, va try-except blokidan keyingi qatorlar ham bajarilaveradi (print("Dastur Tugadi!")). Buni quyidagi natijadan ham ko‘rishimiz mumkin:

try-except operatorining afzalliklaridan biri, foydalanuvchiga tushunarsiz xatolar o‘rniga, o‘zimiz istagan, tushunarliroq matnni ko‘rsatishimiz mumkin. Shuningdek, kompleks tizimlarda arzimagan xatoni deb dasturimiz to‘xtab qolmaydi.

try-except-else

Yuqoridagi kodimizda biz try moduli ichida xato qaytarishi mumkin bo‘lgan ifodani ham (tyil = int(tyil)), xato qaytmaganda bajarilishi kerak bo‘lgan ifodani ham (print(f"Siz {2021-tyil} yoshdasiz")) birdan yozib ketayapmiz. Aslida, bunday qilishimiz to‘g‘ri emas.

To‘g‘ri usuli, bu avval xatoga tekshirish va xato yuz bermaganda bajariladigan ifodani alohida, else blokida yozish:

```
yosh = input("Yoshingizni kiriting: ")
try:
   yosh = int(yosh)
except:
   print("Butun son kiritmadingiz")
else:
   print(f"Siz {2021-yosh} yilda tug‘ilgansiz")
```

Albatta, yuqoridagi usul har doim ham qo‘l kelavermaydi.

Ma’lum turdagi xatolarni ushlash. Xatolarning turlari ko‘p, except operatori yordamida esa biz aynan qaysi xatolarni ushlamoqchi ekanimizni ham ko‘rsatishimiz mumkin. Misol uchun yuqoridagi misolda int() funksiyasi ValueError xatosini qaytardi. Agar biz faqatgina shu turdagi xatolarni ushlamoqchi bo‘lsak, kodimizni quyidagicha o‘zgartiramiz:

```
yosh = input("Yoshingizni kiriting: ")
try:
   yosh = int(yosh)
except ValueError:
```

```
    print("Butun son kiritmadingiz")
else:
    print(f"Siz {2021-yosh} yilda tug‘ilgansiz")
```

ZeroDivisionError

Ba’zi dastur davomida arifmetik amallar bajarilishi natijasida 0 ga bo‘lish xatoligi (ZeroDivisionError) yuzaga kelishi mumkin. Aynan shu xatoni jilovlash uchun, except ZeroDivisionError ifodasidan foydalanamiz:

```
x,y=5,10
try:
   y/(x-5)
except ZeroDivisionError:
    print("0 ga bo‘lib bo‘lmaydi")
```

Natija: 0 ga bo‘lib bo‘lmaydi

IndexError

Bu xatolik odatda ro‘yxatda mavjud bo‘lmagan indeksga murojat qilishda chiqib keladi.

```
mevalar = [’olma’,’anor’,’anjir’,’uzum’]
try:
    print(mevalar[7])
except IndexError:
    print(f"Ro‘yxatda {len(mevalar)} ta meva bor xolos")
```

Natija: Ro‘yxatda 4 ta meva bor xolos

KeyError

Bu xatolik lug‘atda mavjud bo‘lmagan kalitga murojat qilishda kelib chiqadi:

```
user = {"username":"sariqdev",
        "status":"admin",
        "email":"admin@sariq.dev",
        "phone":"99897123456"}

key="tel"
try:
    print(f’Foydalanuvchi: {user[key]}’)
except KeyError:
    print("Bunday kalit mavjud emas")
```

Natija: Bunday kalit mavjud emas
FileNotFoundError
Avvalgi darsimizda fayllar bilan ishlashni o‘rgangan edik. Fayllarni biz o‘qish (open(filename,’r’)) yoki yozish (open(filename,’w’)) uchun ochishimiz mumkin. Agar faylga ma’lumot yozish uchun ochishda, mavjud bo‘lmagan faylga murojat qilsak, Python yangi fayl yaratadi. Lekin, faylni o‘qish uchun ochishda fayl nomini xato yozsak, yoki mavjud bo‘lmagan faylni ochmoqchi bo‘lsak FileNotFoundError (fayl topilmadi) xatoligi yuzaga keladi.

```
filename = "data.txt" # bunday fayl mavjud emas
with open(filename) as f:
    text = f.read()
```

Natija: FileNotFoundError: [Errno 2] No such file or directory: ’data.txt’
Demak, bu xatolikni ham ushlab qolish uchun except FileNotFoundError ifodasidan foydalanamiz:

```
filename = "data.txt" # bunday fayl mavjud emas
try:
    with open(filename) as f:
        text = f.read()
except FileNotFoundError:
    print(f"Kechirasiz, {filename} fayli mavjud emas. Bosh fayl tanlang.")
```

Natija: Kechirasiz, data.txt fayli mavjud emas. Bosh fayl tanlang.
Pythonda bundan boshqa xatolar ham ko‘p uchraydi, ularning ba’zilari 12-darsda tanishgan edik.

.

BIR NECHTA XATOLARNI USHLASH

try-except ketma-ketligida bir nechta except operatorlari ham bo‘lishi mumkin. Ularning har biri ma’lum turdagi xatolik uchun javobgar bo‘ladi:

```
n = input("Butun son kiriting: ")
try:
    n = int(n)
    x=20/n
except ValueError: # agar foydalanuvchi butun son kiritmasa
    print("Butun son kiritmadingiz")
except ZeroDivisionError: # agar foydalanuvchi 0 kiritsa
```

```
    print("0 ga bo‘lib bo‘lmaydi")
else:
print(f"x={x}")
```

XATOLARNI KO‘RSATMAY O‘TISH

Yuqoridagi misollarda kodimiz xato qaytarganda, dasturimiz foydalanuvchiga qandaydur ma’lumotni ko‘rsatayapti:

```
import json
files = [’talaba1.json’,’talaba2.json’,’talaba3.json’,’talaba4.json’]
for filename in files:
    try:
        with open(filename) as f:
            talaba = json.load(f)
    except FileNotFoundError:
        print(f"{filename} mavjud emas")
    else:
        print(talaba[’ism’])
        # fayl ustida turli amallar
```

Hech qanday ma’lumot ko‘rsatmay, dasturni davom etish uchun pass operatoridan foydalanamiz. Odatda pass operatoridan funksiyalar yoki operatorlarning badanini "to‘ldirib" ketish uchun ishlatiladi.

Ya’ni, agar biz except operatorini yozsagu, uning badanida hech narsa bajarilishini istmasak, pass operatorini ishlatamiz.

```
import json
files = [’talaba1.json’,’talaba2.json’,’talaba3.json’,’talaba4.json’]
for filename in files:
    try:
        with open(filename) as f:
            talaba = json.load(f)
    except FileNotFoundError:
        pass
    else:
        print(talaba[’ism’])
```

Xatolarning oldini olish. Yuqorida biz xatolar yuz berganda, ularni ushlash va dastur to‘xtashining oldini olishni ko‘rdik. Ya’ni, try-except ketma-ketligi xatolarning oldini olishga yordam bera olmaydi. Xatolarning oldini olish uchun if-else va while tsikllaridan foydalanganimiz afzal.

Mavzu boshidagi misolimizga qaytsak. Biz foydalanuvchi yoshini so‘radik, va foydalanuvchi butun son kiritmagani sababli dasturni to‘xtatdik. Aslida, while tsikli yordamida toki foydalanuvchi to‘g‘ri qiymat kritgunga qadar uning yoshini qayta-qayta talab qilishimiz mumkin:

```
while True:
    yosh = input("Yoshingizni kiriting: ")
    if yosh.isdigit():
        yosh = int(yosh)
        break

print(f"Siz {2021-yosh} yilda tug‘ilgansiz")
```

Albatta yuqordagi usul barcha xatolar uchun ishlamaydi. Shunday xatolar bo‘lishi mumkinki, biz ularni oldindan ko‘ra olmasligimiz yoki, oldindan to‘g‘rila olmasligimiz, yoki xato foydalanuvchiga bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Shunday holatlarda, try-except operatorlari bizning xaloskorimiz bo‘ladi.

Nazorat savollari.

1. Xatoliklar turlarini sanab bering?
2. Ma’lum turdagi xatoliklar qanday ushlanadi?
3. Xatoliklarni oldini olish usullari?

13-14-ma’ruza.Pythonda sinflar va obyektlar

Reja:

1. Pythonda obyektlar?
2. Pythonda sinflar?
3. Klassning xususiyatlari va metodlari.

Obyekt Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash (OYD) texnologiyasining eng asosiy kalit tushunchasidir. Atrofga qarang, haqiqiy hayotdagi bir necha obyektlarni ko‘rishingiz mumkin: stol, uy, it, mushuk, televizor va h.k.

Ularning barchasining albatta hususiyatlari va bajaradigan vazifalari (funktsiyalari) bor. Masalan, Mushuk hususiyatlari: rangi, qorni to‘qligi, yoshi, jinsi; funktsiyalari: ovqat yeyishi, myovlashi, yurishi, sichqon tutishi. Mashina, hususiyatlari: tezligi, rangi, nomi, narxi; funktsiyalari: yurishi, to‘xtashi, oyna artgichlarining ishlashi, eshiklarning ochilib yopilishi v.h.k. Bu kabi hayotiy misollarning hususiyatlari va funktsiyalarini aniqlash OYD nuqtai nazaridan fikrlashning eng zo‘r ko‘rinishidir.

Kompyuter indikatorining 2 ta xususiyati bor o‘chiq va yoniq; funktsiyalari esa yonish va o‘chish. Bu barcha kuzatishlar OYD dunyosiga o‘tkazish mumkin.



Dasturlashdagi obyekt.

Dasturlashdagi obyekt(bundan keyin oddiygina obyekt deb ketiladi) ham haqiqiy hayotdagi obyektlarga o‘xshash: Ular ham qandaydir hususiyatlar va bajaradigan funktsiyalardan iborat bo‘ladi. Obyektning hususiyatlari har xil dasturiy o‘zgaruvchilardan iborat bo‘ladi va ularning o‘zgartirish uchun qandaydir funktsiyalar bajariladi. Bunday funktsiyalar bilan o‘zgaruvchilarning holatini berkitish mumkin ya’ni aynan o‘sha o‘zgaruvchini tashqaridan o‘zgartirish uchun albatta maxsus funktsiyadan foydalanish kerak bo‘ladi. Bu jarayon "Enkapsulatsiya" deb atalib, OYDning eng muxim

tushunchalaradian biridir. Hech e’tibor berganmisiz dorilarda ham shu termin ishalitladi ya’ni kapsula(ustidan maxsus modda bilan o‘ralgan dorilar), buni misolni Enkapsulatsiya jarayoni esda yaxshi qolishi va tushunarli bo‘lishi uchun keltirdik.

Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash.

Shu paytgacha python bo‘yicha darslarimizda keltirilgan dasturlar faqat funksiyalardan tashkil topgan edi. Ya’ni ma’lum bir ma’lumotlarni qayta ishlaydigan ifodalar blokidan iborat bo‘ldi. Bu prosedura ko‘rinishidagi dastrulash uslubi hisoblanadi. Dasturlarni tashkil qilishning boshqa ko‘rinishi ham mavjud: ma’lumotlar va funksiyalarni bir ob’ekt ostiga jamlash. Bu dasturlashning ob’ektga yo‘naltirilgan modeli hisoblanadi.

Klass va ob’yektlar – ob’yektga yo‘naltirilgan dasturlashning ikkita asosiy aspekti. Klass yangi tur (тип) hosil qiladi, ob’ektlar esa klassning nusxasi hisoblanadi. Masalan, “int turidagi o‘zgaruvchi” deganda, butun son qiymatlarni saqlovchi o‘zgaruvchilar int klassining nusxasi – ob’yekti ekanligini tushunishimiz kerak.

Obyektlar ma’lumotlarni o‘ziga tegishli bo‘lgan o‘zgaruvchilarda saqlaydi. Obyekt yoki klassga tegishli bo‘lgan o‘zgaruvchilar maydonlar deyiladi. Shu bilan birga obyektlar klasslarga tegishli bo‘lgan funksiyalarni ham o‘zlida jamlaydi. Bunday funksiyalar klass metodlari deb ataladi. Maydon va metodlarni umumiy qilib klass attributlari deb atash mumkin.

Maydonlar ikki turda bo‘ladi: ular aloxida ob’yektga tegishli bo‘lishi mumkin yoki butun bir klassga tegishlik bo‘lishi mumkin.

Ular o‘z navbatida ob’yekt o‘zgaruvchilari va klass o‘zgaruvchilari deb nomlanadi.

Klasslar class kalit so‘zi bilan xosil qilinadi.

```
class Person:
pass # Bo‘sh blok
```

Klass ob’yekti quyidagicha xosil qilinadi:

```
p = Person()
```

Misol:

```
class Person:
 def sayHi(self):
 print(’Salom! Ishlar qanday?’)
 p = Person()
 p.sayHi()
```

Natja:
>>>Salom! Ishlar qanday?
Bu qanday ishlaydi:

Klass metodlari oddiy funksiyardan parametrlari boshiga qo‘shiladigan self qo‘shimcha parametri bilan farqlanadi.

Person klassining sayHi metodida bu narsa ko‘rsatilgan.

Lekin bu metodni ob’yekt orqali chaqirganimizda xech qanday qiymat bu parametr uchun berilmasligi kerak. self o‘zgaruvchisi klass ob’yektiga murojat qilish uchun ishlatiladi.

__init__ metodi

__init__ (boshida va oxirida ikkita “_” belgisi) metodi klass ob’yekti xosil qilinayotgan vaqtda chaqiriladi. Bu metod ob’yekt uchun kerak bo‘ladigan boshlang‘ich o‘zlashtirishlar uchun foydali.

Misol: (class_init.py nomi bilan saqlang)

```
class Person:
 def __init__(self, name):
 self.name = name
 def sayHi(self):
 print(’Salom! Mening ismim’, self.name)
  p = Person(’Swaroop’)
 p.sayHi()
```

Natija:

>>>**Salom! Mening ismim Swaroop**

Bu qanday ishlaydi:

Bu yerda biz __init__ metodini self parametri yonida name parametrini qabul qiladigan qilib aniqladik. So‘ngra name (self.name) maydonini aniqladik. Bu yerda self.name ob’yektga tegishli maydon name esa mahalliy o‘zgaruvchi.

Ahamiyat berish kerakki, klass ob’yektini xosil qilishda __init__ metodini ochiq chaqirganimiz yo‘q, uning o‘rniga klass nomidan so‘ng argumentlarni qavs ichida berdik xolos. Shu holat bilan bu metodning roli bog‘liq.

Shundan so‘ng biz self.name maydonini metodlarimizda ishlatish imkoniga ega bo‘lamiz. Buni sayHi metodi ko‘rsatib turibdi.

Obyektga yo‘naltirilgan dasturlashning tamoyillaridan biri bu inkapsulyatsiya, ya’ni obyektning xususiyatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri (nuqta orqali) murojat qilishni va ularning qiymatini o‘zgartirishni taqiqlab qo‘yish. Pythonda bunday yopiq xususiyatlarning nomi ikki

pastki chiziq bilan boshlanadi:

```
from uuid import uuid4
class Avto:
    """Avtomobil klassi"""
    def __init__(self,make,model,rang,yil,narh,km=0):
        """Avtomobilning xususiyatlari"""
        self.make = make
        self.model = model
        self.rang = rang
        self.yil = yil
        self.narh = narh
        self.__km = km
        self.__id = uuid4()

    def get_km(self):
        return self.__km
    def get_id(self):
        return self.__id
```

Yuqoridagi kodimizning 11-qatorida __km xususiyati avtomobilning necha km yurgani haqida ma’lumot saqlaydi va bu ma’lumotni tashqaridan o‘zgartirib bo‘lmaydi. Kodimizning 12-qatorida esa har bir yangi yaratilgan avtomobilga yangi, noyob va takrorlanmas ID generasiya qilish uchun uuid4() funksiyasidan foydalanayapmiz. Deylik biz mashinalar sotish uchun onlayn bozor yaratsak, bozorimizga qo‘shilgan har bir moshina endi o‘zining ID raqamiga ega bo‘ladi va bu ID raqamni to‘g‘ridan-to‘g‘ri (nuqta orqali) ko‘rib bo‘lmaydi.

```
avto1 = Avto("GM","Malibu","Qora",2020,40000,100000)
avto1.__km
```

Natija: AttributeError: ’Avto‘ object has no attribute ’__km’

Yopiq xususiyatlarni ko‘rish uchun esa alohida metodlar yozish maqsadga muvofiq bo‘ladi (get_km()) va get_id()):

```
print(f"ID: {avto1.get_id()}")
```

Natija: ID: 1d4f39a4-3222-4682-9231-6275ca5e1bff

Bunday yopiq xususiyatlarni o‘zgartirish ham metodlar orqali amalga oshirilishi kerak. Misol uchun mashinaning necha km

yurganini o‘zgartirish uchun klassimizga quyidagi metodni qo‘shamiz:

```
def add_km(self,km):
        """Mashinaning km ga yana km qo‘shish"""
        if km>=0:
            self.__km += km
        else:
            print("Mashina km kamaytirib bo‘lmaydi")
#########################
avto1.add_km(1500)
print(avto1.get_km())
```

Natija: 101500

Inkapsulyatsiyaning maqsadi obyektning ma’lum xususiyatlarini tashqi ta’sirdan himoya qilish. Misol uchun yuqoridagi misolimizda mashinaning qancha yurganini faqat musbat tarafga o‘zgartirish mumkin, noyob ID raqamini esa umuman o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Klassning xususiyatlari va metodlari. Avvalgi darslarimizda biror klassdan yaratilgan har bir obyektning xususiyatlarini klass ichidagidef __init__() medoti yordamida berayotgan edik. Bu metod qanday ishlaydi? Biz har gal klassga murojat qilganimizda klass aynan shu __init__metodini ishga tushiradi va biz bergan xususiyatlar bilan yangi obyekt yaratadi.

Pythonda xususiyatlarni nafaqat obyektga balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri klassga ham yuklash imkoniyati mavjud. Bunda klassning xususiyatiga berilgan qiymat barcha obyektlar uchun umumiy bo‘ladi.

Bu xususiyatni bir obyekt orqali o‘zgartirilganda shu klassga oid barcha obyektlarda ham uning qiymati o‘zgaradi.

Klassga oid xususiyatlar def __init__() metodidan avval e’lon qilinadi. Keling tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi misolni ko‘ramiz:

```
class Avto:
    """Avtomobil klassi"""
    num_avto = 0
    def __init__(self,make,model,rang,yil,narh,km=0):
        """Avtomobilning xususiyatlari"""
        self.make = make
        self.model = model
        self.rang = rang
        self.yil = yil
```

```
        self.narh = narh
        self.__km = km
        self.__id = uuid4()
        Avto.num_avto += 1
```

Kodni tahlil qilamiz:

1-qatroda Avto klassini e'lo qildik

3-qatorda Avto klassiga oid bo'lgan xususiyat num_avto yaratdik va unga 0 qiymatini berdik

Keyingi qatorlarda __init__ metodi yordamida klassdan yaratiladigan obyektlarning xususiyatlarini e'lon qildik va har gal bu metdoga murojat qilingandan num_avto ning qiymatini 1 ga oshradigan qilib qo'ydik (13-qator).

Yuqoridagi usul bilan endi biz dastur davomida Avto klassidan jami nechta obyektlar yaratilganini kuzatib borishimiz mumkin bo'ladi. Bunda num_avto o'zgaruvchisiga istalgan obyekt orqali yoki klass nomi orqali murojat qilish mumkin:

```
avto1 = Avto("GM","Malibu","Qora",2020,40000)
avto2 = Avto("GM","Lacetti","Oq",2020,20000)
print(avto1.num_avto)
```

Copied!

Natija: 2

```
avto3 = Avto("Toyota",'Carolla',"Silver",2018, 45000)
print(Avto.num_avto)
```

Copied!

Natija: 3

Klassning xususiyatlarini inkapsulyatsiya qilish. Klassga oid xususiyatlar ham huddi yuoqridagi kabi nomidan avval ikki pastki chiziq qo'shish bilan inkapsulyatsiya qilinadi:

```
class Avto:
    """Avtomobil klassi"""
    __num_avto = 0 # klassga oid xususiyat
    def __init__(self,make,model,rang,yil,narh):
        """Avtomobilning xususiyatlari"""
        self.make = make
        self.model = model
        self.rang = rang
```

```
        self.yil = yil
        self.narh = narh
        Avto.__num_avto += 1
```

Klassga oid metodlar. Klasslarning o‘ziga xos metodlari ham bo‘lishi mumkin. Misol uchun yuqoridagi num_avto xususiyatini ko‘rish uchun alohida metod yozishimiz mumkin. Klassga oid metodlar @classmethod dekoratori bilan boshlanadi va obyektga oid metodlardan farqli ravishda *self* emas *cls* (class) argumentini qabul qiladi.

```
class Avto:
    """Avtomobil klassi"""
    __num_avto = 0
    def __init__(self,make,model,rang,yil,narh,km=0):
        """Avtomobilning xususiyatlari"""
        self.make = make
        self.model = model
        self.rang = rang
        self.yil = yil
        self.narh = narh
        self.__km = km
        self.__id = uuid4()
        Avto.__num_avto += 1

    @classmethod
    def get_num_avto(cls):
        return cls.__num_avto
```

Copied!

Klass metodlarga klassning nomi orqali murojat qilinadi:

```
avto1 = Avto("GM","Malibu","Qora",2020,40000)
avto2 = Avto("GM","Lacetti","Oq",2020,20000)
avto3 = Avto("Toyota",’Carolla’,"Silver",2018, 45000)
print(Avto.get_num_avto())
```

Natija: 3

@classmethod bu maxsus dekorator. Dekoratorlar bu o‘z ichiga funksiya oluvchi funksiyalar. Dekoratorlar haqida keyingi darslarimizning birida batafsil to‘xtalamiz.

KLASSLARNI MODULGA AJRATISH

Vaqt o‘tishi bilan dasturimizda klasslar ko‘payib borishi tabiiy.

Bizning asosiy dasturimiz uzun va chigal bo‘lmasligi uchun klasslarni ham huddi funksiyalar kabi alohida modullarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dastur davomida kerak bo‘ladigan klasslarga esa modulni chaqirish (import) orqali murojat qilishimiz mumkin. Bunda, bir-biriga bog‘liq klasslarni bitta faylga joylashimiz mumkin.

Misol uchun, biz Talaba, Professor, Foydalanuvchi va Shaxs degan klasslarni bitta odamlar.py moduliga, Avto, Bus, Train degan klasslarni esa boshqa transport.py moduliga joyladik. Kelajakda biz bu klasslarga import orqali murjat qilishimiz mumkin.

Bitta klassni import qilish. Moduldan bitta klass import qilish uchun from modul import klass ifodasidan foydalanamiz:

```
from odamlar import Talaba
from transport import Avto
talaba = Talaba("Alijon","Valiyev","FA010101","N00022")
avto = Avto("GM","Malibu","Qora",2020,40000)
```

Bir nechta klasslarni import qilish. Moduldan bir nechta klass chaqirish talab qilinsa, import so‘zidan so‘ng klasslar ketma-ket vergul bilan ajratib yoziladi:

```
from odamlar import Talab, Shaxs
talaba = Talaba("Alijon","Valiyev","FA010101","N00022")
shaxs = Shaxs("Hasan","Husanov","FB0011223")
```

Copied!

Modulni o‘zini chaqirish. Modulni to‘liq import qilish uchun import modul ifodasidan foydalanamiz. Bunda modul ichidagi klasslarga modul nomi va nuqta orqali murojat qilinadi:

```
import odamlar
talaba = odamlar.Talaba("Alijon","Valiyev","FA010101","N00022")
shaxs = odamlar.Shaxs("Hasan","Husanov","FB0011223")
```

Moduldagi barcha klasslarni import qilish. Moduldagi barcha klasslar quyidagicha import qilinadi: from modul import *. Bunda modul ichidagi istalgan klassga to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning nomi bilan murojat qilinadi.

```
from odamlar import *
talaba = Talaba("Alijon","Valiyev","FA010101","N00022")
shaxs = Shaxs("Hasan","Husanov","FB0011223")
```

Bu usul 2 sababga ko‘ra tavsiya qilinmaydi:

Dasturni kelajakda qayta ochganimizda, dastur davomida moduldagi

aynan qaysi klasslardan foydalanganimizni bir qarashda bilib bo‘lmaydi
Agar modul juda katta bo‘lsa, uning ichidagi ba’zi klasslar biz o‘zimiz yaratgan klasslar bilan nomi bir hil bo‘lib qolish ehtimoli bor. Bu esa o‘z navbatida dastrumiz xato ishlashiga olib keladi.
! Modul ichiga boshqa modulni ham import qilish mumkin. Masalan modul ichidagi ba’zi klasslar to‘g‘ri ishlashi uchun boshqa modul talab qilingan vaqtlarda.

Nazorat savollari.

1. Obyekt nima?
2. Sinflar qanday yaratiladi?
3. Sinflar ustida metodlar?

15-ma’ruza. Vorislik tushunchasi

Reja:

1. Voris class yaratish.
2. Voris klassga xos xususiyatlar va metodlar.
3. Obyekt ichida obyekt.

Obyektga yo‘naltirilgan dasturlashning qulayliklaridan biri bu klasslardan boshqa klass yaratish imkoniyati. Bizga kerak bo‘lgan yangi klass, avval yaratilgan boshqa klass bilan o‘xshashlik joylari bo‘lsa, biz bu klassdan voris klass yaratishimiz mumkin. Bunda asl klass — ota, yoki super klass deb ataladi.

Super klassdan yaratilgan voris klass otaning barcha yoki tanlangan xususiyatlari va metodlarini meros olish bilan birga, o‘ziga xos xususiyat va metodlariga ega bo‘ladi.

Keling boshlanishiga Shaxs klassini yaratamiz, bu klassimiz keyinchalik boshqa klasslar uchun super klass vazifasini bajaradi:

```
class Shaxs:
    """Shaxslar haqida ma’lumot"""
    def __init__(self,ism,familiya,passport,tyil):
        self.ism = ism
        self.familiya = familiya
        self.passport = passport
        self.tyil = tyil

    def get_info(self):
        """Shaxs haqida ma’lumot"""
        info = f"{self.ism} {self.familiya}. "
        info += f"Passport:{self.passport}, {self.tyil}-yilda tug‘ilgan"
        return info
    def get_age(self,yil):
        """Shaxsning yoshini qaytaruvchi metod"""
        return yil — self.tyil
```

Klassimizni tekshirib ko‘ramiz:

```
inson = Shaxs("Hasan","Alimov","FB001122",1995)
print(f"{inson.get_info()}. {inson.get_age(2021)} yoshda.")
```

Natija: Hasan Alimov. Passport:FB001122, 1995-yilda tug‘ilgan. 26 yoshda.

VORIS KLASS YARATISH

Endi avvalgi darsimizda yaratgan Talaba klassimizni qaytadan yaratamiz. Bu safar, avvalgidan farqli ravishda, Talaba ni yaratishda, Shaxs dan super klass sifatida foydalanamiz:

```
class Talaba(Shaxs):
    """Talaba klassi"""
    def __init__(self, ism, familiya, passport, tyil):
        """Talabaning xususiyatlari"""
        super().__init__(ism, familiya, passport, tyil)
```

Kodimizni tahlil qilaylik:

1-qatorda klass nomidan so‘ng, qavs ichida super klass nomini berdik

5-qatorda (def __init__ ichida) klassimiz super klassning xususiyatlarini meros olishini ko‘rsatdik

Yangi yaratgan Talaba klassimiz Shaxsning barcha xususiyatlari va metodlariga ega bo‘ladi.

```
talaba = Talaba("Valijon","Aliyev","FA112299",2000)
print(talaba.get_info())
```

Natija: Valijon Aliyev. Passport:FA112299, 2000-yilda tug‘ilgan

Talaba klassi uchun alohida get_info() metodini yozmagan bo‘lsakda, bu metod Talabaga Shaxsdan meros o‘tdi.

Huddi shu kabi get_age() metodiga ham murojat qilishimiz mumkin:

```
>>>print(talaba.get_age(2021))
21
```

Dastur davomida super klass voris klasslardan avval yozilgan (chaqirilgan) bo‘lishi kerak.

VORIS KLASSGA XOS XUSUSIYATLAR VA METODLAR

Hozirgi ko‘rinishda Talaba va Shaxs klasslari o‘rtasida hech qanday farq yo‘q. Keling Talaba klassimizga o‘ziga xos xususiyatlar va metodlar yarataylik. Avvalosiga, talabaning bosqichi va ID raqamini xususiyat sifatida qo‘shamiz. Bunda ID raqami obyekt yaratilishida parameter sifatida uzatiladi, bosqich esa standart qiymatga ega.

```
class Talaba(Shaxs):
    """Talaba klassi"""
    def __init__(self, ism, familiya, passport, tyil,idraqam):
        """Talabaning xususiyatlari"""
        super().__init__(ism, familiya, passport, tyil)
        self.idraqam = idraqam
        self.bosqich = 1
```

Endi yangi, Talaba obyektini yaratishda qo‘shimcha idraqam

parametrini ham kiritish talab qilinadi:
talaba = Talaba("Valijon","Aliyev","FA112299",2000,"0000012")
So‘ngra, bu qiymatlarni qaytaruvchi alohida metodlar yozamiz:

```
class Talaba(Shaxs):
    """Talaba klassi"""
    def __init__(self, ism, familiya, passport, tyil,idraqam):
        """Talabaning xususiyatlari"""
        super().__init__(ism, familiya, passport, tyil)
        self.idraqam = idraqam
        self.bosqich = 1
     def get_id(self):
        """Talabaning ID raqami"""
        return self.idraqam
      def get_bosqich(self):
        """Talabaning o‘qish bosqichi"""
        return self.bosqich
```

Metodlarni tekshirib ko‘ramiz:

```
>>>print(f"{talaba.get_info()}. ID raqami:{talaba.get_id()}")
Valijon Aliyev. Passport:FA112299, 2000-yilda tug‘ilgan. ID raqami:0000012
>>>print(f"{talaba.get_bosqich()}-bosqich talabasi")
1-bosqich talabasi
```

Shu zayilda yangi klassimizga istalgancha yangi xususiyatlar va metodlar qo‘shishimiz mumkin. Bunda, agar yangi xususiyat yoki metod super klassga ham aloqador bo‘lsa uni birdan super klassga qo‘shish tavsiya qilinadi.
Voris klass boshqa klass uchun super klass bo‘lishi mumkin.
POLIMORFIZM — SUPER KLASS METODLARINI QAYTA YOZISH
Voris klassga super klassdan meros qolgan istalgan metodni qayta talqin qilish mumkin. Avvalgi misolimizdagi get_info() super metodini ko‘raylik, bu metod talabaning ismi, familiyasi, passport raqami va tug‘ilgan yilini qaytaradi:

```
>>> print(talaba.get_info())
Valijon Aliyev. Passport:FA112299, 2000-yilda tug‘ilgan
```

Endiget_info() metodi talabaga mos ma’lumotlar qaytarishi uchun, Talaba klassi ichida huddi shu nomli metodni qayta yozamiz:

```
class Talaba(Shaxs):
```

```
    """Talaba klassi"""
    def __init__(self,ism,familiya,passport,tyil,idraqam):
        """Talabaning xususiyatlari"""
        super().__init__(ism, familiya, passport, tyil)
        self.idraqam = idraqam
        self.bosqich = 1

    def get_id(self):
        """Talabaning ID raqami"""
        return self.idraqam

    def get_bosqich(self):
        """Talabaning o‘qish bosqichi"""
        return self.bosqich

    def get_info(self):
        """Talaba haqida ma’lumot"""
        info = f"{self.ism} {self.familiya}. "
        info += f"{self.get_bosqich()}-bosqich. ID raqami: {self.idraqam}"
        return info
```

Metodni tekshirib ko‘ramiz:

```
>>> print(talaba.get_info())
Valijon Aliyev. 1-bosqich. ID raqami: 0000012
```

OBYEKT ICHIDA OBYEKT

Ba’zida klassimiz xususiyatlar va ular bilan ishlaydigan metodlarga to‘lib ketishi, bu esa o‘z navbatida obyektga murojat qilishni qiyinlashitirishi mumkin. Shunday holatlarda ba’zi xususiyatlarni alohida klass ko‘rinishida yozish va keyinchalik bu klassdan yaratilgan obyektni boshqa obyektning xususiyati sifatida foydalanish mumkin.

Misol uchun, yuqoridagi Shaxs klassimizga yana bir manzil degan xususiyat qo‘shaylik. Odatda manzil bir nechta qismlardan iborat bo‘ladi (xonadon, ko‘cha, mahalla, tuman/shahar, viloyat, indeks va hokazo) va ularning har biri uchun Shaxs ichida alohida xususiyat yaratmasdan, alohida manzil degan klassga yuklash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

```
class Manzil:
```

```
    """Manzil saqlash uchun klass"""
    def __init__(self,uy,kocha,tuman,viloyat):
        """Manzil xususiyatlari"""
        self.uy = uy
        self.kocha = kocha
        self.tuman = tuman
        self.viloyat = viloyat

    def get_manzil(self):
        """Manzilni ko‘rish"""
        manzil = f"{self.viloyat} viloyati, {self.tuman} tumani, "
        manzil += f"{self.kocha} ko‘chasi, {self.uy}-uy"
        return manzil
```

Talaba klassimizga ham qo‘shimcha manzil xususiyatini qo‘shamiz:

```
class Talaba(Shaxs):
    """Talaba klassi"""
    def __init__(self,ism,familiya,passport,tyil,idraqam,manzil):
        """Talabaning xususiyatlari"""
        super().__init__(ism, familiya, passport, tyil)
        self.idraqam = idraqam
        self.bosqich = 1
        self.manzil = manzil

    def get_id(self):
        """Talabaning ID raqami"""
        return self.idraqam

    def get_bosqich(self):
        """Talabaning o‘qish bosqichi"""
        return self.bosqich

    def get_info(self):
        """Talaba haqida ma’lumot"""
        info = f"{self.ism} {self.familiya}. "
        info += f"{self.get_bosqich()}-bosqich. ID raqami:
{self.idraqam}"
        return info
```

Keling endi talaba obyektini qayta yaratamiz. Bu safar talabaning

manzili ham alohida obyekt sifatida talaba ga uzatiladi:

```
talaba_manzil = Manzil(12,’Olmazor’,"Bog‘bon","Samarqand")
talaba = Talaba("Valijon","Aliyev","FA112299",2000,"0000012",talaba_manzil)
```

Obyekt ichidagi obyektning xususiyatlari va metodlariga ham avvalgidek nuqta orqali murojat qilishimiz mumkin:

```
>>> print(talaba.manzil.get_manzil())
Samarqand viloyati, Bog‘bon tumani, Olmazor ko‘chasi, 12-uy
>>> print(talaba.manzil.tuman)
Bog‘bon
```

Nazorat savollari.

1. Obyekt ichida obyekt qanday hosil qilinadi?
2. Polimorfizm nima?
3. Voris classga xos xususiyatlar qaysilar?

16-17-ma’ruza.Grafik modular bilan ishlash.

Reja:

1. Python dasturlash tilida grafik modullar.
2. Matematik grafiklar chizish.

Python grafik foydalanuvchi interfeyslarini (GUI) dasturlash uchun turli xil xususiyatlar ca imkoniyatlarni taqdim etadi. Eng muhimlari:

Tkinter — Tkinter Python bilan ta’minlangan Python Tk GUI interfeysidir.

wxPython — wxWindows uchun http://wxpython.org ochiq manba kodli Python interfeysi.

JPython — JPython Python skriptlarini mahalliy kompyuterdagi Java sinf kutubxonalariga osonlik bilan kirish imkonini beruvchi Java porti uchun Pythondir.

Tkinter standart Python GUI kutubxonasidir. Python Tkinter bilan birgalikda GUI ilovalarini yaratish uchun tezkor va qulay usulni ta’minlaydi. Tkinter Tk GUI asboblar to‘plami uchun kuchli ob’ektga asoslangan interfeysni ta’minlaydi.

Tkinter bilan GUI dasturini yaratish oddiy vazifadir. Buning uchun quyidagi bosqichlarni bajarish kerak:

Tkinter modulini import qiling.

Grafik interfeysli asosiy dastur oynasini yaratish.

Kerakli vidjetlardan bir yoki bir nechtasini GUI ilovasiga qo‘shing.

Foydalanuvchi tomonidan boshlangan har bir tadbirga qarshi harakat qilish uchun asosiy hodisani ko‘chasini kiriting.

Graph moduli

from graph import *-graph modulning barcha funksiyalarini ulash.

Chiziq rangi:

penColor("red")

white, black, gray, navy, blue,cyan, green, yellow, red, orange,brown, maroon, violet, purple, ...

Chiziq kengligi:

penSize(2)

To‘ldirish rangi:

brushColor(“green”)

RGB(Red, Green, Blue) rangi:
penColor(255,255,0)
point(x, y)-x,y kordinatada nuqta chizish
from graph import*
penColor(0, 0, 255)
point(200, 300)
line(x1,y1,x2,y2)-chiziq chizish
from graph import*
penColor(0, 0, 255)
line(100,100, 400,400)
Bir nechta chiziqlar chizish:
penColor(255, 0, 0)
moveTo(x1, y1)
lineTo(x2, y2)
lineTo(x3, y3)
lineTo(x4, y4)
lineTo(x5, y5)
Primitivlar(eng oddiy shakllar):
To‘rtburchak chizish:
penColor("blue") #chiziq rangi
brushColor("yellow") #to‘ldirish rangi
rectangle(10, 20, 50, 40) #shakl nomi
#faqat shakl nomini yozsa oddiy rangsiz konturga ega #shakl chizadi
Uchburchak chizish:
penColor("cyan")
brushColor("magenta")
polygon([(10, 10), (50, 50),
(10, 50), (10, 10)])
Aylana chizish:
penColor("red")
brushColor("green")
circle(50, 30, 20)
Turli xil ranglar bilan to‘ldirish(gradian):
from graph import*
x = 50
c = 0
for i in range(20):
    brushColor(c, c, c)









```
    rectangle(x, 50, x+25, 100)
    x += 50
    c += 50
```

$y=x^2$ funksiya grafigini chizish:

```
from graph import *
x0 = 150
y0 = 250
k = 50
xmin = -2; xmax = 2
line(0, y0, x0+150, y0)
line(x0, 0, x0, y0+20)
x = xmin
h = 0.02
penColor("red")
while x <= xmax:
  y = x*x # funsiya
  xe = x0 + k*x
  ye = y0 — k*y
  point(xe, ye)
  x += h
run()
```



17-ma’ruza.Turtle moduli

Ushbu ma’ruzada biz Turtle (Turtle) grafik moduli yordamida Pythondagi grafik dasturlarni tuzamiz. Tirtle moduli Python uchun maxsus oynada grafik ob’ektlar, chizmalar yaratishga imkon beruvchi moduldir.

Turtle grafik modulidan pythonda o‘yinlarini yaratish uchun foydalanish mumkin.

Tirtle grafik modulini biriktirish (import qilish) uchun siz quyidagi usullardan birini tanlashingiz kerak:

1. import turtle
2. from turtle import*
3. from turtle import open as t

Birinchi usul modulni import qilish, ammo buyruqlarni modulga havola bilan yozish kerak (havola sifatida) atribut) OOP uslubida.

Ikkinchi usul sizga modul nomlarini eslatmasdan to‘g‘ridan-

to‘g‘ri modul funktsiyalariga kirishga imkon beradi.
Uchinchi usul sizga modul nomini o‘zingizning ismingiz bilan, ya’ni yozish o‘rniga o‘zgartirishga imkon beradi to‘liq modul nomi biz faqat bitta belgidan foydalanamiz,
Masalan:
t.reset ()
t.fd (100)

Tirtle moduli bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi grafik muhit -maydon deb nomlangan, ya’ni ijrochi harakatlanadigan maydon. Buning uchun parametrsiz reset()buyrug‘idan foydalaning. Bundan tashqari, u barcha sozlamalarni standart ko‘rinishiga keltirib, ijrochini dastlabki holatiga qaytaradi.

Ijrochiining tashqi ko‘rinishi (standart uslubi classic qora rangda) — har doim o‘q uchi u xarakatlanadagan tomon yo‘naltirilgan

Ijrochining ko‘rinishini belgilaydigan bir nechta buyruqlar mavjud:
1.turtle.shape ("Style")- tashqi ko‘rinishini o‘zgartiradi
2.turtle.shapesize (m, n) — ijrochining o‘lchamini boshqaradi
3.turtle.tilt (alfa) — ijrochining yo‘nalishini o‘zgartiradi
4.turtle.hideturtle ()- Turtleni yashiradi
5.turtle.showturtle ()- Turtleni ko‘rsatadi.

Shape() funktsiyasidagi "Style" parametri ijrochining ko‘rinishini o‘zgartiradi.
Quyidagi stillar mavjud:
• arrow
• turtle
• circle
• square
• triangle
• classic

Python-da tirtle moduli bo‘lgan dastur to‘g‘ri ishlashi uchun, dastur oxirida har doimikkita buyruqni ro‘yxatdan o‘tkazishingiz kerak:
1.t.screen.exitonclick ()
2.t.screen.mainloop ()
t.screen.exitonclick () buyrug‘i sichqoncha tugmasi bosilganda Python dasturi bunga javob beradi. Agar foydalanuvchi kursor paytida

sichqonchaning chap tugmachasini bossa tirtlr modulining grafik oynasida bo‘lsa, oyna yopiladi.
t.screen.mainloop () buyrug‘i dasturning bajarilishini to‘xtatadi.

Dasturni ishga tushirgandan so‘ng, markazda "Turtle" va grafikalar uchun oynani ko‘rasiz

Grafik oynasini ishga tushirganda tirtle koordinatasi oyna markazida joylashganligini ko‘ramiz.Musbat X o‘qi yo‘nalishi chapdan o‘ngga, musbat Y o‘qi yo‘nalishi pastdan yuqoriga aniqlanadi.

Python-da Turtle modulining grafikasi uchun oynada Turtleni oldinga siljitish uchun t.fd (x) buyrug‘idan foydalaning, bu erda x — Turtle harakatlanadigan piksellar soni. Orqaga harakatlanish uchun t.bk (x) buyrug‘i ishlatiladi. Toshbaqnii ma’lum joyga ko‘chirish uchun koordinatalari t.goto (x, y) foydalaning, bu erda x va y — Turtle harakatlanishi kerak bo‘lgan nuqtaning koordinatalari.

```
from turtle import *
t=Turtle()
t.screen.setup(600,600)
t.color("red")
t.stamp()
t.color("blue")
t.circle(100)
t.screen.exitonclick()
t.screen.mainloop()
```




```
import turtle
big_line = 100
little_line = 50
```

```
angle = 90
turtle.left(angle)
turtle.forward(big_line)
count = 0
while count < 4:
    turtle.right(angle//2)
    if count != 3:
        turtle.forward(little_line)
    else:
        turtle.forward(big_line)
    count = count + 1
turtle.right(90)
turtle.forward(130)
```



Turtlening asosiy buyruqlari ro‘yxati

	Turtlening ko‘chirish buyruqlari
forward(n)/fd(n)	oldinga siljish n qadam (piksel)
backward(n)	orqaga qarab n qadam (piksel)
left(angle)	chap burchak gradusi bo‘yicha burish
right(angle)	o‘ng burchak gradusl bo‘ycha burish
circle(r)	| r | radiusli aylana chizish markazi Turtle chap tomonida joylashgan bo‘ladi agar r> 0 bo‘lsa, va r <0 bo‘lsa markaz o‘ngda joylashadi
circle(r,angle)	| r | radiusli yoyni chizamiz va burchak gradus o‘lchoviga ko‘ra. Yoy chizilganr> 0 bo‘lsa, soat

	strelkasiga teskari , r <0 bo‘lsa, soat strelkasi bo‘ylab
goto(x, y)	”Turtleni” koordinatalari (x, y) nuqtaga joylashtiriladi
	Chizish buyruqlari
down()	qalamni pastga tushiring. Ushbu buyruqdan keyin Turtle har qanday harakat bilaniz qoldirishni boshlaydi
up()	qalamni ko‘taring
width(n)	Turtle izining kengligini n pikselga sozlang
color(s)	Turtle izi ning rangi
Bgcolor(s)	fon rangini s qilib belgilayadi.
fill(f)	bo‘yalgan joylarga chizish uchun ishlatiladi
	Boshqa buyruqlar
reset()	Turtleni asl holiga qaytaradi: ekranni tozalaydi
write(s)	Turtle joylashgan joyda s satrini chop eting
dot(r, color)	nuqta chizadi, bu erda r nuqta radiusi va rang nuqta rangidir
radians()	burchak o‘lchovi (barcha Turtle buyruqlarida) radianda qo‘yiladi
degrees()	burchaklar o‘lchovini (barcha Turtle buyruqlarida) gradusda qo‘ying

Nazorat savollari.

1. Pythonda grafik modullarni snab o‘ting?
2. Grafik modular qanday o‘rnatiladi?
3. Turtle modulining buyruqlar ro‘yhati?

18-19-ma’ruza. Tkinter moduli

Reja:

1. Tkinter modulini o‘rnatish.
2. Tkinter modulining buyruqlar ro‘yxati.
3. Tkinterda vidjetlar.

